

A. G'ULOMOV, A. MATMURATOV

O'ZBEK TILI

Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan umumta'lim
maktablarining 4-sinfi uchun darslik

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi
vazirligi tasdiqlagan*

NUKUS
"BILIM"
2004

81.2 430

81-63
G'-95

A. Q. G'ulomov, A. Matmuratov. O'zbek tili. 4-sinf uchun darslik.
Nukus: "Bilim", 2004. 72 bet.

81.63. ya 7

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan 2002-yilgi tanlovda g'olib topilgan.

Taqrizchilar: **A. Tilegenov** — *O'zPFITI Qoraqalpog'iston filiali direktori-ning o'rinbosari, pedagogika fanlari nomzodi;*
Z. Ibrohimova — *Nukus shahar 3-maktabning o'qituvchisi;*
G. Masharipova — *Nukus shahar 3-maktabning o'qituvchisi.*

© "Bilim" nashriyoti, 2004

A. Q. G'ULOMOV, A. MATMURATOV

O'ZBEK TILI

4-sinf

"Bilim" nashriyoti
Nukus — 2004-yil


W 30932
2

Muharrir *S. Baynazarova*
Rassom *I. Qdirov*
Badiiy muharrir *K. Reybnazarov*
Tex. muharrir *T. Maxsudova*
Operator *Z. Sultamuratova*

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 3. 07. 2004. O'lshami 60x90^{1/16} Tayms garniturası. Hajmi 4,5 b/t. 4,1 hisob b/t. Nusxasi 5000. Buyurtma № 49
Narxi 1514 so'm.

"Bilim" nashriyoti. 742000. Nukus shahri. Qoraqalpog'iston ko'chasi, 9.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Matbuot va axborot agentligining Nukus poligrafkombinati, Nukus shahri, Qoraqalpog'iston ko'chasi, 9.



W

1-SENTABR — O‘ZBEKISTON
MUSTAQILLIGI KUNI



1-mashq. Rasmni kuzating. «Mustaqillik bayrami» mavzusida ogʻzaki hikoya tuzing.

2-*mashq*. 1-topshiriq. She'ni o'qing, mazmunini so'zlab bering.

O'ZBEKISTON — VATANIM

O'zbekiston — Vatanim,
Dunyo ichra makonim.
Quchog'ingda yayrayman,
Qolmasin hech armonim.

Istiqloling muborak,
Baxt-iqboling muborak,
Jahon ichra yoyilgan,
Shon-shavkating muborak.

Vatan mehri dilimda,
Ilhom beradi menga.
Xalqing xurram jahonda,
Madhing kuylar har onda.

(S. Asadov.)

Lug'at

makon — ma'kan jay
quchog'ing — qushag'in'
armon — a'rman
yoyilgan — jayilg'an

shon-shavkat — ma'rtebe, dan'q
ilhom — yosh
xurram — kewilli
madhing — maqtawin'

2-topshiriq. She'ni yodlang.

3-*mashq*. 1-topshiriq. O'zbek va qoraqalpoq xalq maqollarini o'qing, ularning mazmunini tushuntirishga harakat qiling.

1. Ayriilmagil elingdan, 2. Ayrilg'an el azadi,
Quvvat ketar belingdan. Birikken el ozadi.

3. Vatan tinch—sen tinch.

4. Bulbul chamanni sevar, 5. Watan ku'nnen suliw,
Odam—Vatanni. Altinnan qimbat.

2-topshiriq. Mustaqillik haqida o'zingiz bilgan xalq maqollaridan namunalar keltiring.

tinch — tinish
chaman — sha'men

sevadi — su'yedi
quvvat — quwat

TAKRORLASH

SO'Z, GAP VA MATN

4-mashq. Berilgan so'z guruhlarini davom ettiring.

- 1) Harakatni ifodalovchi so'zlar: *yozdi, ishladi, bajardi, ...*
- 2) Shaxsni ifodalovchi so'zlar: *ishchi, mexanizator, muhandis, ...*,
- 3) Belgini ifodalovchi so'zlar: *baland, katta, chiroyli, ...*,

5-mashq. Rasmni kuzating, mevalarning qoraqalpoqcha nomlanishini yozing.



6-mashq. «O'zbekiston mevalari» mavzusida og'zaki matn tuzing.

7-mashq. 1-topshiriq. Berilgan so'zlarni aloqa-munosabatga kiritib, gaplar hosil qiling.

1. Pishdi, mevalar, g'arq, kuzda. 2. Qovunlari, Qoraqalpog'iston, olamda, mashhur. 3. Faslda, bu, kirsangiz, ko'zingiz, qamashadi, bog'ga. 4. Meva, yig'im-terimida, qatnashamiz, biz ham.

Lug'at

g'arq pishdi — jetilip pisti (uwiljip pisti)
mashhur — belgili, ataqli

fasl — ma'wsim
qamashadi — qamasadi

2-topshiriq. So'zlarni o'zaro aloqa-munosabatga kiritishda sizga nimalar yordam berdi? Shu xususida so'zlab bering.

8-mashq. Ota-onangiz, bobo-buvilaringizdan so'rab, Qoraqalpog'istonda yetishtiriladigan qovun turlarini aniqlang. Ularni qatnashtirib, «Qoraqalpog'iston qovunlari» mavzusida og'zaki matn yarating.

9-mashq. 1-topshiriq. Rasmni diqqat bilan kuzating va quyidagi reja asosida avval qoraqalpoq tilida, so'ngra o'zbek tilida yozma matn tuzing.



Reja

1. Assalom kuz.
2. Meva yig'imi boshlandi.
3. Bolalar olmazorda.

2-topshiriq. Tuzgan matningizda nechta gap borligini aniqlang. Ularning mazmunan o'zaro birikkanligiga e'tibor bering.



Bilib qo'ying. Matn ikki va undan ortiq gapning mazmunan o'zaro birikuvidan hosil bo'ladi.

10-mashq. «Bog'da» mavzusida sinfdoshingiz bilan o'zaro suhbat matni tuzish bo'yicha bellashing. Suhbatni davom ettirmasangiz o'yinda yutqazgan sanalasiz.

OLMOSH

11-mashq. Gap juftlarini o'qing. Ajratilgan so'zlarning qaysi so'zga ishora qilayotganligini aniqlang.

1. Bekmurod va Zafar shaxmat to'garagiga qatnashadi. **Ular** 4-sinf o'quvchilari. 2. Yigirmaga o'n beshni qo'shsang, o'ttiz besh. On yettiga o'n sakkizni qo'shsang ham **shuncha**. 3. Raxima qiziqarli multfilmni tomosha qildi. Salima ham **shunday** multfilmni ko'rdi. 4. Karima onasini bayram bilan tabrikladi. Singlisi Manzura ham **shunday** qildi.

12-mashq. Qancha?, nechanchi?, necha?, kim?, nima? so'zlarini qatnashtirib, so'roq gaplar tuzing.

N a m u n a: *Darvozani kim taqillatdi?*

13-mashq. Allakim, allanima, allaqancha, allamahol so'zlarini qatnashtirib, gaplar hosil qiling.

N a m u n a: *Allakim darvozani taqillatdi.*



Esda tuting. Men, sen, u, biz, siz, ular, shu, o'sha, shunday, shuncha, qancha?, nechanchi?, necha?, allanima, allakim singari so'zlar olmoshlardir.

14-mashq. 1-topshiriq. Men, sen, ol, biz, siz, ular, usi, sonday, qancha?, a'lekim so'zlari ishtirokida qoraqalpoqcha gaplar tuzing.

2-topshiriq. Bu gaplarni o'zbek tiliga o'giring va olmoshlarning ostiga chizing.

15-mashq. Nuqtalar o‘miga qavs ichida berilgan zarur olmoshni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. ... yozgi oromgohda dam oldik. 2. ... shaxmat to‘garagiga yozildilar. 3. ... sen bilan uchrashamiz. 4. ... yo‘ldan tez o‘tib ketdim. 5. Qoraqalpoq shoirlaridan ... bilasiz?

(kimlarni?, biz, men, ular, bizlar)

16-mashq. 1-topshiriq. Matnni o‘qing. Olmoshlarni aniqlab, ularning birlik yoki ko‘plikda qo‘llanilganligini ayting.

MAQTANGAN G‘OZ

(Masal)

Bir g‘oz suvda suzib yurib maqtanibdi: «Olamda mendan hunarmand qush yo‘q. Yerda yuguraman, suvda suzaman, havoda uchaman. Bir o‘zimning uch xil hunarim bor». G‘ozning bu so‘zini bir qurbaqa eshitib: «O‘rtoqjon, sen maqtanmasang ham bo‘lar edi. Chunki, baliqdek suzolmaysan, kiyikdek yugurolmaysan, lochindek ucholmaysan. Chala-chulpa shu hunarlarni qilguncha, birini tuzukroq bajarsang yaxshi edi», — dedi.

Biz bir maqolni yaxshi bilamiz: «Maqtanma g‘oz, hunaring oz».

2-topshiriq. Berilgan xalq maqolidan qanday xulosa chiqardingiz?

17-mashq. 1-topshiriq. She‘mi o‘qing. She‘r mazmuni asosida so‘roq gaplar tuzing.

HUNARNI SEV

Hunarni sev, hunarni!
Hunar senga asqotar.
Hunar oltin soni yo‘q,
Sanasang qator-qator.

O‘rgan sen ham yigitsan,
Yetmish turi oz senga.
Hunarli er kam bo‘lmas,
Maqolin ol esingga.

Mayli, duradgor usta,
Chilangar bo'1, xohishing.
Xalqqa biror manfaat
Yetkazsin qilgan ishing.

Binokor bo'1, ha balli,
Bizga soz uylar kerak.
Bastakor bo'1, marhamat,
Sho'x, shirin kuylar kerak.

Rizamat bobodek bo'1,
Yashnat Vatan bog'larin.
Hunarli bo'1, ilm ol,
Har ikkisi ham zarur.

Hunar — bu baxt-iqbol,
Belga quvvat, ko'zga nur.

(T. Yo'ldosh.)

2-topshiriq. She'rdagi olmoshlarni aniqlang.

Lug'at

ishora — ko'rsetpe

oromgoh — dem aliw ornı

xobish — meyl

hunar — o'ner

asqotar — kerekli, za'ru'r

bastakor — kompozitor

18-mashq. Matnni o'qing. Mazmunini o'z so'zlaringiz bilan so'zlab bering.

BUYUKLIK TIMSOLI

Muhammad Tarag'ay Bahodir o'g'li Amir Temur yoshlik chog'ida mard, dovyurak, g'ururli, o'tkir zehn va aql-u idrok egasi bo'lib o'sdi. Turli dunyoviy ilmlarni, harbiy san'atni egalladi. Qur'oni Karimni yod oldi, hadis ilmini o'rgandi. Imon-e'tiqodli, halol, pok inson bo'lib yetishdi.

U yoshligidan tashlab o'z oldiga ona yurtini mo'g'il bosqinchilaridan ozod qilish maqsadini qo'ydi, yer yuzida buyuk saltanat sohibi sifatida el va elatlarning boshini qovushtirdi. Mamlakat qudratini har sohada yuksaklikka ko'tarib, dunyoga mashhur qildi.



Amir Temur davlatining qurilishi, harbiy san'ati ko'p asrlar davomida Sharq-u G'arb davlatlariga o'rnak va andoza bo'ldi. Uning zamonida madaniyat, ilm-u fan, me'morchilik, tasviriy san'at, musiqa, she'riyat beqiyos rivoj topdi. Amir Temurning madaniyat va din ahllariga ko'rsatgan muruvvati ayniqsa, ibratlidir.

Ko'hna tarix sahifalari buyuk bobomizning millat va el-ulus bobida chekkan mislsiz zahmat hamda ko'rsatgan shijoatlariga guvohlik beradi.

Insof-imon tuyg'usi, diyonat mezoni Amir Temur hayotining mazmunini tashkil etadi. Olamning qariyb yarimigacha jahongir ersa-da, u kuch-qudrat, zo'ravonlikda emas aksincha, adolatda ekanini teran angladi.

(I. Karimov.)

YORDAMCHI SO‘ZLAR

BOG‘LOVCHILAR

19-mashq. O‘qing. Ajratilgan so‘zlar qanday vazifa bajarayotganligini aniqlang.

Kitob **va** daftar, Salima **hamda** Karima; Qutlibeka darsda o‘yladi **va** so‘zladi. Kuz keldi, **shuning uchun** mevalar g‘arq pishdi. Havo bulut bo‘ldi, **ammo** yomg‘ir yog‘madi.

20-mashq. Chap va o‘ng tomondagi so‘zlarni o‘zaro qiyoslang va farqini aniqlashga harakat qiling.

Paxta, bug‘doy, zavod, | va, ham, hamda, shuning uchun
temir, shahar, olma, uzum, | uchun, ammo.



Bilib oling. *Va, ham, hamda, shuning uchun, ammo* singari so‘zlar bog‘lovchilardir. Ular so‘z va gaplarni o‘zaro bog‘lashga xizmat qiladi.

21-mashq. *Va, ham, hamda, shuning uchun, ammo* bog‘lovchilari ishtirokida gaplar tuzir g.

22-mashq. Matnni o‘qing. Darak gaplarni so‘roq gaplarga aylantiring.

YORDAMCHI SO‘ZLAR

So‘zlar ifodalab kelgan ma‘nosiga ko‘ra mustaqil va yordamchilarga ajratiladi. Mustaqil so‘zlar muayyan ma‘no ifodalaydi, yordamchi so‘zlar esa muayyan ma‘noga ega emas.

Yordamchi so‘zlarning bog‘lovchilardan tashqari yana ko‘makchi va yuklama singari turlari ham bor. Siz ular bilan keyingi sinflarda tanishasiz.

Lug‘at

vazifa — waziypa, tapsırma

qiyoslash — salıstırw

yordamchi so‘zlar — ko‘mekshi so‘zler

bog‘lovchi — da‘neker

ko‘makchi — ko‘mekshi

yuklama — janapay

1-OKTABR — MUALLIMJONLAR BAYRAMI

23-mashq. Rasmni diqqat bilan kuzating va og'zaki matn tuzing.



24-mashq. She'rni ifodali o'qing. Ajratilgan so'zlarning qanday vazifa bajarayotganligini tushuntiring.

MUALLIM

Boshda fikr nuri — gavhar,
Bolalarga ustoz, sarvar.
Qalbi toza gullar qadar
Bu — muallim, muallim.

Darsida gar sezsa nuqson,
Yuragida turar to'fon.

Tunlar bedor, qiynalgan jon
Bu — muallim, muallim.

Ishi **bilan** dili birdir,
Do'sti-yorga shirin tildir.
To'lqin ursa Amu-Sirdir
Bu — muallim, muallim.

Mustaqillik xush zamona,
Xush zamonga u parvona.
Yurtim, elim... deydi yona
Bu — muallim, muallim!

(Bahrom Mahmud.)

25-mashq. O'qituvchingizga avval qoraqalpoq tilida, so'ngra o'zbek tilida tabriknoma yozing.

Lug'at

muhtaram muallimjonim — hu'rmetli mug'allimim
o'qituvchilar bayrami — oqituvshilar bayrami
bilan — benen, penen, menen
tabriklayman — quthqalayman
ulkan zafarlar — u'lken tabislar
tilayman — tileymen
yoshlar — jaslar
tarbiyalash — tarbiyalaw
sizga — sizge
kuch-quvvat — ku'sh-quwat
g'ayrat — g'ayrat

26-mashq. 1-topshiriq. Ertakni o'qing. Mazmunini qoraqalpoq tilida so'zlab bering.

OCHKO'Z BOY

(Ertak)

Bor ekan-da, yo'q ekan, och ekan-da, to'q ekan, bir zamonlar chol bilan kampir o'tgan ekan. Chol o'tinchilik bilan zo'rg'a kun o'tkazar ekan. U kunlardan bir kuni cho'lga o'tin tergani borsa, yovshanning tagida bir o'rdak ucholmay

yotganmish. Chol uni avaylab uyiga olib kelibdi va parvarish qila boshlabdi. O'rdak bir oy deganda patlari o'sib, parvoz qiladigan bo'libdi. Chol quvonib, uni devorning ustiga qo'yibdi. O'rdak uchib ketibdi.

Buni ko'rgan kampir choldan ranjib: "Qani qilgan foydangiz, o'rdak uchib ketdi-ku! Uni so'yib yerdik yoki sotardik",— debdi. Chol: "Savobi tegar",— debdi.

Kunlarning birida o'sha o'rdak uchib kelib, tom boshiga qo'nibdi. Kampir: "Hoy chol, qarang, o'rdagingiz keldi",— debdi. Chol o'rdakni ko'rib, belbog'ini yozib don sepibdi. Ammo o'rdak donga tushmay, tumshug'idagi bir hovuch gavharini tashlabdi-yu, uchib ketibdi. O'zida yo'q xursand bo'lgan chol gavharlarni do'konlarga olib borib katta pulga sotibdi.

Chol bilan kampir juda ham boy-badavlat bo'lib yashay-versinlar-u, gapni boshqa yoqdan eshiting.

Cholning bir boy qo'shnisi bor ekan. Boy yeyishga noni, kiyishga kiyimi bo'lmagan qashshoq o'tinchining badavlat bo'lib ketganini ko'rib: "Qanday qilib bunchalik boyidingiz?"— deb so'raydi. Sodda chol bo'lgan voqeani batafsil gapirib beribdi va "O'rdakni davolaganim evaziga u menga gavhar tashlab ketdi, boyligim o'shandan"— debdi.

Hasad o'tida yongan boy cho'lga ravona bo'libdi. U axtara-axtara bir o'rdakni tanibdi-yu, oyog'iga urib mayib qilibdi, patini bittalab yulib olibdi. So'ng uni uyiga olib kelib parvarishlaydi. Jonivorning bir qancha vaqtdan so'ng yana pati o'sib, uchib ketibdi. Shu ketganicha bir oy ko'rinmabdi. Bir kuni uchib kelib boyning tomiga qo'nibdi. Boyning xotini katta ko'rpani chiqarib supaga yozib, don sepibdi. O'rdak tomda turganicha bir dona tarvuz urug'i tashlabdi. G'azablangan boy qarasa, o'rdak osmoni falakda parvoz qilib ketayotganmish. Boyning jahli chiqib, tarvuz urug'ini yerga ekibdi. Bir haftada qulochga sig'maydigan katta tarvuz bo'libdi. U kun sayin emas, soat sayin o'saveribdi. Ajablangan boyning toqati tugab, tarvuzning dumini bolta bilan chopib uyiga dumalatib kelibdi. Ancha gavhar chiqsa kerak, qo'shnimning ko'zi tushmasin

deb, eshikni ham qulflabdi. So'ng er-xotin tarvuzni so'yishibdi. Uning ichidan gavhar emas, kattakon bir ajdarho chiqib, boy bilan xotinni yutib yuboribdi.

Shunday qilib, ochko'z boyning mol-mulki ham chol-kampirga qolibdi.

Lug'at

chol — g'arni

cho'l — sho'l

yovshan — juvsan

batafsil — aniq

parvarish qilmoq — ku'tiw (ku'tip qaraw)

badavlat — da'wletli

evaziga — ornina

tumshuq — tumsiq

ravona bo'lmoq — rawana boliv

2-topshiriq. «Ochko'z boy» ertagidan olmosh va bog'lovchilarni aniqlang. Ertakdan qanday xulosa chiqarganingizni so'zlab bering.

3-topshiriq. Berilgan topishmoqlarni o'qing, javobini ayting.

Ko'ksida bir xoli bor,
Boshida pat toji bor,
Chumchuqdan sal kattaroq,
Sayroqi qush u biroq.

(M. Nuriddinov.)

Topib oldim bir ne'mat,
U oltinga sotilmas,
Usiz sirli sandiqning
Qulfi sira ochilmas.

(H. Yo'ldoshev.)

27-mashq. Rasmni kuzating. «Maktab oshxonasi» mavzusida matn yarating.



SO‘Z TARKIBI

28-mashq. 3-sinfda qoraqalpoq tilidan o‘rganilgan “Tu‘bir ha‘m qosimta” mavzusini eslang va quyidagi savollarga javob bering.

1. “Tu‘bir so‘z” nima?
2. “Tu‘bir so‘z” ma‘noli qismlarga bo‘linadimi?
3. “Qo‘shimcha” deb nimaga aytiladi?

29-mashq. Berilgan soʻzlarning oʻzagi va qoʻshimchasini aniqlang.

Gulli, gulzor, guldon; paxtali, paxtakor, paxtazor; boshliq, boshla, boshchi.

30-mashq. Berilgan oʻzaklarga qoʻshimchalar qoʻshib, yangi soʻzlar hosil qiling.

bogʻ ...

suv ...

chiz ...

ish ...

31-mashq. Matnni oʻqing. Oʻzakdosh soʻzlarni aniqlab koʻchiring.

MAKTABIMIZ BOGʻI

Maktabimizning katta bogʻi bor. Bogʻbonlar bogʻdagi mevali daraxtlarni juda yaxshi parvarish qilishadi. Shuning uchun ham mevalarning hosili moʻl boʻladi. Maktabimiz oʻquvchilari bogʻbonlardan bogʻdorchilik sirlarini qunt bilan oʻrganishmoqdalar. Oʻzlari ham ana shunday bogʻlar yaratishga harakat qilishayapti.

32-mashq. Berilgan qoʻshimchalar yordamida qoʻshimchadosh soʻzlar qatorini davom ettiring.

-zor

paxtazor

mevazor

...

...

-kor

paxtakor

sholikor

...

...

-la

ishla

boshla

...

...

-chi

ishchi

suvchi

...

...

33-mashq. Oʻzakdosh soʻzlar bilan qoʻshimchadosh soʻzlarni oʻzaro qiyoslab, farqini aniqlashga harakat qiling.



Bilib oling. Oʻzakdosh soʻzlar bir xil oʻzakdan hosil boʻlgan soʻzlardir. Qoʻshimchadosh soʻzlar esa bir xil qoʻshimcha bilan yasalgan soʻzlar sanaladi.

34-mashq. 1-topshiriq. O'zingiz mustaqil ravishda o'zakdosh va qo'shimchadosh so'zlar hosil qiling.

2-topshiriq. Hosil qilingan o'zakdosh va qo'shimchadosh so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Lug'at

o'zakdosh so'zlar — tu'birles so'zlar

qo'shimchadosh so'zlar — qosimtalas so'zlar

parvarish — ta'rbiyalaw

bog'dorchilik — bag'shiliq

35-mashq. Rasmni kuzating. Rasm mazmuni asosida o'zaro savol-javob o'tkazing.



QO'SHMA SO'ZLAR

36-mashq. Berilgan so'zlarning necha o'zaklardan tashkil topganligini aniqlang.

I. G'o'zapoya, fotoalbom, karnaygul, ketmondasta, gultoji-xo'roz.

II. Shirinsuxon, bodomqovoq, balandparvoz, diqqinafas, oqko'ngil.

III. Suhbat qurdi, aytib berdi, javob berdi, qo'l qo'ydi, yozib ola qoldi.

IV. O'n ikki, yigirma sakkiz, to'qson to'qqiz, bir yuz o'n yetti, ikki ming uch yuz qirq to'rt.



Bilib oling. Qo'shma so'zlar ikki va undan ortiq o'zaktan tashkil topadi.

37-mashq. Berilgan rasmlarning nomini qoraqalpoq va o'zbek tillarida yozing.



38-mashq. Berilgan o‘zaklardan qo‘shma so‘zlar hosil qiling.

Muz, qaymoq; o‘q, ilon; karnay, gul; makka, jo‘xori; kul, rang; osmon o‘par; shaftoli gul; aytmq, bermoq; gapirmoq, qo‘ymoq; imzo, chekmoq; xursand, bo‘lmoq; yigirma, to‘rt; sakson, yetti; yetmish, to‘qqiz.

39-mashq. Ikki yoki uch o‘zakdan tashkil topgan gul nomlarini ro‘yxat qiling.

Namuna: *safsargul, baxmalgul, kartoshkagul, ...*

40-mashq. Qoraqalpoq tilidagi quyidagi qo‘shma so‘zlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling. Ularning qanday hosil bo‘lganligini tushuntiring.

Tu‘yetawiq, besbarmaq, aqquba, biydayren’, Taxtako‘pir, Qarao‘zek, belbew, ornbasar.

41-mashq. Hikoyani o‘qing. Qo‘shma so‘zlarni aniqlang.

DONOLARNING DONOSI

I

Ulug‘ odamlar oramizda bir umr yashaydilar; qiyofalari dillarda, nomlari tillarda. Ularga hamma havas qiladi.

Atrofga qarang, Alisher degan ismlar behisob. Hatto shaharlar, oliy ilm dargohlari, ko‘chalar-u xiyobonlar, teatrlar Alisher Navoiy nomlari bilan sharaflidir. Bularning barchasi ulug‘ shoir, olim, mutafakkir, davlat arbobi hazrat Navoiy hurmatlari uchundir.

Bobomiz Alisher Navoiy 1441-yilning 9-fevralida Hirot shahrida dunyoga kelganlar. Bolalik chog‘laridayoq hamma-ning e‘tiboriga tushganlar. Eng avvalo odobli bo‘lganlar. Ko‘p kitob o‘qiganlar. Zehnlari o‘tkirlikidan minglab misra g‘azalarni yod bilganlar.

Kichikligida yozgan she‘rlariga ustozlari ham qoyil qolishgan. Ona tilini yaxshi bilganlar. Fors va arab tillarini ham puxta o‘rganganlar.

II

Hazrat Navoiy xalqdan yordamlarini ayamasdilar.

Hirotda aholisini og'ir soliqlardan qutqarish uchun o'zlarining shaxsiy mablag'lari bilan yordam berganlar.

Alisher Navoiy Hirotda bir qancha mashhur oromgohlar, madaniyat koshonalari bunyod etganlar. Hazrat shaxsiy mablag'lariga ko'pgina honaqa-yu madrasalar, to'qqizta hammom, o'n to'rtta masjid qurdirdilar.

Hatto masjid qurilishida Navoiyning o'zlari ham choponlarini qayirib qo'yib ishlaganlar.

(*Po'lat Mo'min.*)

42-mashq. She'rni ifodali o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

KUZ

G'ir-g'ir shamol yeladi,
Buni hamma biladi.
O'giradi yelga yuz.
—Marhamat! Kel, oltin kuz!
Maktab borar qiz-o'g'il,
Qo'lda kitob hamda gul.
Oltin oqar daladan,
Tong yorishgan palladan.
Quyosh tushar taftidan,
Qo'rqib qishning aftidan.
Sarg'ayadi ko'katlar,
Barg to'kadi daraxtlar.
Hosil yig'ib olinar,
Qishga zamin solinar.

(*Shukur Sa'dulla.*)

Lug'at

donolarning donosi — danalardın' danası
qiyofa — kelbeti
behisob — esapsız
oliy ilm dargohi — joqarı oqıw orınları
xiyobon — u'lken, ken' ko'she

zehn — zeyin
fors — parsı
palla — waqıt
koshona — saray
honaqa — meshit

21-OKTABR — TIL BAYRAMI

43-mashq. She'ni ifodali o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

ONA TILIMGA

Sen Temur ko'ksida balqqan g'urursan,
Tojisan, taxtisan, sen uning tig'i.
Qablarni ilk bora yoritgan nursan,
Allasan onamning aytgan qo'shig'i.
Senda Navoiyning boqiy ovozi,
Sendadir Boburning nola-yu ohi.
Sendadir Mashrabning o'tli dil so'zi,
Sen o'zing millatning so'nmas panohi.
Sen borsan anglayman, uzoq o'tmishni,
Hamda kelajagin O'zbekistonning.

(L. Rajabova.)

44-mashq. Eshitganlaringiz va o'qiganlaringizga tayanib, quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling.

1. O'zbek tiliga qachon davlat tili maqomi berildi?
2. Siz "Davlat tili" tushunchasini qanday tushunasiz?
3. Nima uchun Qoraqalpog'iston Respublikasida qoraqalpoq va o'zbek tillari davlat tillari sanaladi?
4. Davlat tili qonuniga qanday amal qilinadi?

45-mashq. Berilgan qoraqalpoq xalq maqollarining mazmunini o'zbek tilida tushuntirishga harakat qiling.

1. Jaqsı so'z—yarım ırıs.
2. Jaqsının' so'zi mazalı,
Jamannın' so'zi ızalı.
3. Aytıwshı aqıl bolsa,
Tın'lawshı dana boladı.
4. Bilimli mın'dı jig'adı,
Bilekli birdi jig'adı.

46-mashq. Rasmni kuzating va mazmuni asosida hikoya tuzing.



47-mashq. 1-topshiriq. Til odobi, so'zlash madaniyati haqidagi quyidagi xalq maqollarining mazmunini tushuntiring.

1. Shirin so'z shakardan shirin.
2. Yaxshi so'z ham, yomon so'z ham bir og'izdan chiqadi.

3. Odob boshi — til.
4. Til — aql bezagi.
5. Soʻz qadrini bilmagan oʻz qadrini bilmas.

2-topshiriq. Maqollarni yodlang.

JUFT SOʻZLAR

48-mashq. Takror qoʻllanilgan juft soʻzlar roʻyxatini davom ettiring.

N a m u n a : *baland-baland, qop-qop, savat-savat, ...*

49-mashq. 1-topshiriq. Qarindosh-urugʻchilikka oid juft soʻzlar roʻyxatini davom ettiring.

Namuna: *aka-uka, togʻa-jiyan, ota-ona, ...*

2-topshiriq. Hosil boʻlgan juft soʻzlar imlosiga eʼtibor bering.



Bilib qoʻying. Juft soʻzlar chiziqcha bilan yoziladi.

50-mashq. Juft otlar, juft sifatlar, juft sonlarni qatnashtirib gaplar tuzing.

51-mashq. Berilgan juft soʻzlarni **-u, -yu** bogʻlovchilari bilan bogʻlang.

Yer-osmon, hovli-joy, noz-neʼmat, hazil-mutoyiba, qariyosh, yaxshi-yomon.

N a m u n a : *yer-u osmon, ...*



Esda tuting. Juft soʻzlar **-u, -yu** bogʻlovchilari bilan bogʻlanganda chiziqcha tushib qoladi.

52-mashq. “Imlo lugʻati” dan foydalanib, 10 ta juft soʻz toping.

53-mashq. Berilgan qoraqalpoqcha juft soʻzlarni oʻzbek tiliga oʻgiring.

Uʻlken-kishi, baʻlent-paʻs, jer-aspan, aʻste-aʻste, ata-ana, bes-alti, jaza-jaza, nan-pan, shay-pay, sap-sari, oyin-kuʻlki, juʻzbe-juʻz, koʻrpe-toʻsek, kuʻni-tuʻni.

54-mashq. Berilgan so'zlarga qavs ichidagi so'zlardan mosini qo'yib, juft so'zlar hosil qiling.

ot- ...,	mol-	qozon-
ilma-	pak-	adi-
kitob-	kelin-	dasta-
jimir-	apil-	

(*tapil, jimir, badi, dasta, tovoq, daftar, pakana, kuyov, teshik, arava, dunyo*)

55-mashq. Juft so'zlar ishtirok etgan quyidagi hikmatli so'zlar va xalq maqollarining ma'nosini tushunishga harakat qiling va o'zingiz davom ettiring.

1. Oz-oz o'rganib dono bo'lur,
Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

(*A. Navoiy.*)

2. Ota-onaga hurmat,
Bo'lar o'zingga izzat.

(*Maqol.*)

- 3.....

Lug'at

amma — a'japa

jiyan — jiyen

hazil-mutoyiba — ha'zil-da'lkek

izzat — izzet

o'tmish — o'tmish

kelajak — keleshek

56-mashq. Qoraqalpoq tilida berilgan quyidagi afsonani o'qing. Uning mazmunini o'zbek tilida so'zlab bering.

DUZ

Erte zamanlarda jerde duz bar bolsa da, adamlar onin' paydasin bile almay, tamaqlarin duzsiz jep atirg'an eken. Duzdin' da'slep tabilg'anlig'i haqqinda xaliq awzinda minaday bir a'psana bar. "Bir an'shi qartayg'annan son' bir jerge barip ot jag'ip, an'nin' etin tuwrap iske o'tkerip, kabap etip jemekshi bolipti. An'shinin' sol otirg'an ornı duzdin' ka'ni eken. Isten tartip alg'an bir bo'lek et jerge tu'sip ketkeninde onı qaytadan

qolına alıp, awzına salsa, ettin' mazasının' o'zgergenin an'laptı. Bug'an hayran qalıp, tag'ı bir bo'lek et alıp, o'zi jerge basıp awzına salsa, onnan da mazalı bolıptı.

An'shı bul jerde bir qa'siyettin' bar ekenin bilip, qalg'an kababın duzlap, mazalı etip jep aladı da, duzdın' taza jerinen topıraq-shan'ın artıp, dorbasına salıp, u'yine alıp ketipti.

Da'slep sınaq ko'rip kem-kem qazang'a da sala baslaptı. Duz qaysı jerge jantassa, mazalı bola beripti. Sonnan xalıqqa jayılıp, xalıq duzdı qollanıp, mazalı tamaq jeytug'ın bolıptı.

(Qaraqalpaq xalıq a'psanalarınan.)

57-mashq. O'rganilgan materiallar yuzasidan savol va topshiriqlar tuzing. Tuzgan savol va topshiriqlaringiz asosida "**Topqirlar bellashuvi**" o'tkazing.

Muhtaram o'quvchilar! "Topqirlar bellashuvi"ni o'tkazish uchun ikki guruhga bo'lining. Guruhingizdagi barcha o'quvchilar bellashuvga puxta hozirlik ko'rishlari shart. Ular o'rganilgan materiallar yuzasidan savol va topshiriqlar tuzadilar. Bu savol va topshiriqlar guruh sardori bilan maslahatlashiladi. Agar savol va topshiriqlarni tuzishda qiynalsangiz, o'qituvchingizdan yordam olishingiz mumkin.

Bellashuvda har bir o'quvchining va butun guruhning faolligi inobatga olinadi. Agar guruh a'zosi noto'g'ri savol bersa, yoki o'zi bergan savolning javobini bilmasa, butun guruhga jarima solinadi; ya'ni shu guruhdan ikki ball kamaytiriladi. Eng yaxshi savol uchun besh ballgacha va to'g'ri javoblarning har biri uchun ham shuncha ball qo'yish mumkin.

Savol va topshiriq namunalari

1. Qaraqalpoq tilidagi so'z yasovchi qo'shimchalardan foydalanib, yangi so'zlar hosil qiling. Ularni o'zbek tiliga o'giring va so'zning o'zak va qo'shimchasini aniqlang.

2. Juft so'zlar o'zaro qaysi usullar bilan bog'langanligini aniqlang.

SO'Z MA'NOSI

58-mashq. 1-topshiriq. Berilgan so'zlardagi tovush va harf sonini aniqlang.

Kitob, daftar, sinf, o'quvchi, bog', katta, baland, davo, she'r.

2-topshiriq. Yuqoridagi soʻzlarni aytganingizda koʻz oldingizda nima gavdalanadi?



Bilib oling. Soʻzning qaysi tovush va harflardan tashkil topganligi shu **soʻzning moddiy tomoni** sanaladi. Soʻz ifodalab kelgan maʼno esa **soʻzning ichki, maʼnaviy tomonidir.**

59-mashq. 1-topshiriq. Berilgan qoraqalpoqcha soʻzlarni oʻzbek tiliga oʻgiring. Ularning maʼnosini tushuntirishga harakat qiling.

Agʻash, adam, baqsha, baliq, gilem, goʻsh, gʻargʻa, gʻarni, gʻarbız, duz, egin, ertek, japıraq, zerger, kesel, kishmish, geshir, sipse.

2-topshiriq. Shu soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing.

60-mashq. Berilgan qoraqalpoqcha soʻzlarni oʻzbek tiliga oʻgiring. Ularni taom nomlari va shirinliklar singari ikki guruhga ajrating.

Palaw, kespas, qumsheker, sorpa, nabat, bal, besbarmaq, qant, kabap, maʼyekboʻrek, baliqqarma, aqsawlaq.

61-mashq. Yuqorida berilgan taom nomlaridan foydalanib, “**Qoraqalpoq milliy taomlari**” mavzusida oʻzbekcha ogʻzaki matn tuzing.

62-mashq. 1-topshiriq. Rasmda qanday narsa-buyumlarni koʻrayotganingizni roʻyxat qiling. Ularning maʼnosini tushuntiring.





2-topshiriq. Rasmda tasvirlangan narsalarni «Qurilish materiallari» va «O'quv qurollari» singari ikki guruhga ajrating.

MA'NODOSH SO'ZLAR

63-mashq. 1-topshiriq. Berilgan qoraqalpoqcha so'zlarning har biri ishtirokida gaplar tuzing.

Zaman, vaqt, da'wir; za'ru'r, kerek, da'rkar; izzet, hu'r-met, siylasiq; ku'sh, quwat, da'rman; qural, a'sbap, jaraq; ko'mek, ja'rdem.

2-topshiriq. Bu so'zlarni o'zbek tiliga o'giring. Ular ishtirokida o'zbekcha gaplar tuzing.

64-mashq. 1-topshiriq. Berilgan so'zlardan ma'nolari bir-birlariga yaqinlarini alohida-alohida qatorlarga tuzing.

Qahramon, Vatan, so'zladi, botir, diyor, gapirdi, qo'rqmas, yurt, dovyurak, aytdi, jasur, o'lka.

N a m u n a : *Vatan, diyor, o'lka, yurt.*

2-topshiriq. Siz bu so'zlarni o'z ona tilingizda qanday ataysiz?



Esda tuting. Shakli har xil, ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlar ma'nodosh so'zlardir.

65-mashq. “Men uy-ro‘zg‘or ishlariga qarashaman” mavzusida 3—4 gapdan iborat yozma matn tuzing.

66-mashq. Qoraqalpoqcha va o‘zbekcha ma‘nodosh so‘z qatorlari hosil qiling.

67-mashq. She‘mi o‘qing. Mazmunini o‘zbekcha so‘zlab bering.

WATANIM

Bawirman dos xalqin’ bar,
Da’wirim gu’llep barq urar,
Kewlim alg’a talpınar,
Qushag’in’da Watanım.
Ju’reгимde jalın bar,
Ana su’tin’, palın’ bar.
Tamg’an kindik qanıм bar,
Topırag’in’da Watanım.
So’yleytug’in til berdin’,
Solmaytug’in gu’l berdin’,
Menin’ barlıq ku’nlerim,
Sende o’ter Watanım.
A’lemge dan’qın’ jayılg’an,
Ayg’a jumsa qayıلمان.
Xızmetin’e tayınman,
Ha’mme waqıt Watanım.

(X. Saparov.)

68-mashq. “O‘zbekiston—Vatanım manım” mavzusida og‘zaki matn tuzing. Ma‘nodosh so‘zlardan foydalaning.

69-mashq. She‘mi o‘qing. Ajratilgan so‘zlarga ma‘nodoshlar topishga harakat qiling.

VATAN ISTAGI

Bu Vatanda bir **Vatan**
Qurmoqni istaydi ko‘ngil,
O‘zni obod qush kabi
Ko‘rmoqni istaydi ko‘ngil.
Bu Vatan timsoli bo‘lsa,

Tong quyoshi **sho'las**i
 Sho'lalar qo'ynida charx
 Urmoqni **istaydi** ko'ngil.
 Ul Vatanga bayroq — **insof**,
 Tug'i — sarhad, muhri — mehr,
 Sarhad uzra soqchidek
 Turmoqni istaydi ko'ngil.
 Kim bu tuproq qadri istar.
 Aylamoq tuproqqa teng.
 Ko'zga tuproq bilan
 Urmoqni istaydi ko'ngil.

(E. Vohidov.)

UYADOSH SO'ZLAR

70-mashq. 1-topshiriq. Berilgan so'zlarni gul nomlari va daraxt nomlari kabi guruhlariga ajrating.

Qayin, qayrag'och, safsargul, nomozshomgul, chinor, binafsha, tut, sadarayhon, tol, yalpiz, olma, nilufar, atirgul.

2-topshiriq. Hosil bo'lgan guruhlarni mustaqil davom ettiring.

71-mashq. Parranda va **idish** so'zlari umumiy ma'noli so'z. Ularning turlari (xususiy nomlari)ni yozing.

N a m u n a : **Parranda**
 tovuq
 chumchuq

Idish
 qozon
 piyola

72-mashq. Berilgan qoraqalpoqcha qarindosh-urug'chilikni atovchi so'zlarni o'zbek tilida nomlanishini yozing.

a'ke — ...	ini —
apa — ...	qarindas —
a'japa — ...	ata —
qa'yni biykesh — ...	a'je —
dayı — ...	aqliq —
a'jag'a — ...	shawliq —



Esda tuting. Bir uyani, turkumni tashkil etuvchi soʻzlar uyadosh soʻzlardir.

73-mashq. Berilgan qoraqalpoqcha gaplarni oʻzbek tiliga oʻgirib yozing. Umumiy va xususiy maʼnoli soʻzlarni aniqlang.

1. Aʼyyemgi qalalar: Samarqand, Buxara, Xiywa aʼlemge danʼqi ketken. 2. Qaraqalpaqstan qawinlari: guʼrbek, tornabat, jambilsha, sekerpara dim mazali boladi. 3. Noʼkiste haʼr tuʼrli millet waʼkilleri: qaraqalpaqlar, qazaqlar, oʼzbekler, tuʼrkmenler, ruslar birge dos-tatiw jasaydi. 4. Klasimiz oqiwshilari Gulayim, Guʼlparsha, Sarbinaz agʼla bahalar menen oqiya.

74-mashq. Uyadosh soʻzlarni qatnashtirib “Qoraqalpoq milliy kiyimlari” mavzusida matn yarating.

ZID MAʼNOLI SOʻZLAR

75-mashq. Berilgan soʻzlarga zid maʼnoli soʻzlar qoʻyib, ularni koʻchiring.

Baland-..., achchiq-..., katta-..., uzun-..., yosh-..., oq-..., rost-..., mehnatsevar-..., chiroyli-..., semiz-....



Bilib oling. Maʼnosi bir-biriga zid soʻzlar zid maʼnoli soʻzlardir.

76-mashq. Oʻzingiz oʻqigan ertak qahramonlarining yaxshi va yomon fazilatlarini yozing.

77-mashq. 1-topshiriq. Berilgan oʻzbek xalq maqollaridagi zid maʼnoli soʻzlarni aniqlang.

- | | |
|--|--|
| 1. Birlashgan — oʻzar,
Birlashmagan toʻzar. | 2. Yaxshi qarashadi,
Yomon talashadi. |
| 3. Yomon gap — bosh qozigʻi,
Yaxshi gap — jon ozigʻi. | 4. Achchiq savol berib,
Shirin javob kutma. |
| 5. Doʻst achitib soʻzlar,
Dushman — kuldirib. | |

2-topshiriq. Maqollarning ma'nosini izohlashga harakat qiling. Har bir maqoldan chiqargan xulosangizni ayting.

3-topshiriq. Maqollarni yodlang.

78-mashq. Matnni o'qing. Mazmuni asosida savol-javob o'tkazing.

VATANNI SUYMAK

Har bir **kishining** tug'ilib o'sgan shahar va mamlakati shu kishining **Vatanidir**. Har kim **tug'ilgan**, o'sgan yerini jonidan **ortiq** sevadi. Hatto bu vatan his-tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z vatanidan — uyidan ayrilsa, o'z yeridagi kabi rohatda yashamas. **Har vaqt** dilining bir go'shasida o'z vatanining muhabbati turar.

Biz, turkistonliklar, o'z vatanimizni jonimizdan ortiq sevmiz. Biz **singari** arablar ham Arabistonlarini, qumlik, issiq cho'llarini, sovuq o'lkalarda **yashovchilar** esa eng sovuq, qor, muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda ko'radilar. Agar sevmasalar edi, o'z vatanlarini tashlab ketar edilar.

Bobolarimiz: "Kishi yurtida **sulton** bo'lguncha, o'z yurtida cho'pon bo'l",—deydilar.

(Abdulla Avloniy.)

Savol va topshiriqlar

1. Vatan deganda siz nimani tushunasiz?
2. Nima uchun kishilar o'z vatanlarini sevadilar?
3. Sizning vatanningiz qayer? U nima deb ataladi?
4. Siz o'z vatanningizni sevasizmi? Nima uchun?
5. Matn oxiridagi maqoldan nimani tushundingiz? Aytib bering.

79-mashq. "Vatanni suymak" matnidagi ajratilgan so'zlarga uyadosh toping.

Lug'at

zid ma'noli so'zlar — qarama-qarsi ma'nili so'zlar

fazilat — pazyilet

katta — u'lken

uyadosh so'zlar — bir tu'rdegi zatlardi ataytug'in so'zlar

mamlakat — ma'mleket

o'lka — u'lke

sovuq — suwiq

80-mashq. 1 - topshiriq. She’mi ifodali o‘qing. Mazmunini so‘zlab bering.

QOMUSIMSAN — BAXTIMSAN

Erk iqbolning bulog‘i,
Haqgo‘ylikning yarog‘i,
Istiqlolning qarog‘i
Qomusimsan — oftobim,
O‘zni tanish kitobim.

Istiqlolning o‘zisan,
Uning aytar so‘zisan,
Vatanimning ko‘zisan,
Qomusimsan — hayotim,
Ko‘kka uchar qanotim.

Vatanimga nur sochding,
Iqbol eshigin ochding,
Buloqdek qaynab toshding,
Qomusimsan — baxtimsan,
Umid, orzum, ahdimsan.


(S. Xudoyorov.)

81-mashq. “O‘zbekiston fuqarolarining ilm olish huquqi” mavzusida o‘qituvchingiz bergan savollarga javob bering.

82-mashq. “Konstitutsiyamiz — baxtimiz qomusi” mavzusida dialogik matn tuzing.

83-mashq. 1 - topshiriq. Quyidagi savollarga javob topishga harakat qiling.

1. O‘zbekiston Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?
2. Qoraqalpog‘iston Konstitutsiyasi-chi?
3. Nega Qoraqalpog‘iston Respublikasining alohida Konstitutsiyasi bor?
4. O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Konstitutsiyalarida fuqarolarga qanday huquqlar berilgan?
5. Konstitutsiyada belgilangan huquqlardan kimlar foydalana oladi?



2-topshiriq. Rasmni kuzating. O'zbekiston fuqarolarining ilm olish huquqi xususida so'zlab bering.

TARJIMAYI HOL YOZISH

84-mashq. 1-topshiriq. Tarjimayi hol namunasini o'qing. O'zingizning tarjimayi holingizni yozing.

Men, Qutlibekov Ashirbay Davletovich, 1989-yil 15-dekabrda Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy tumanidagi Oltinsoy jamoa xo'jaligida tug'ilganman. Otam Qutlibekov Davlet shu jamoa xo'jaligida bog'bon, onam Rajapova Xumorgul Rahmanovna esa hamshira bo'lib ishlaydilar.

Oilamizda 5 kishi yashaymiz. Opam va akam 9-maktabning 7-va 5-sinflarida o'qiydilar. Men 1995-yil 1-sinfga o'qishga bordim. Hozir 4-sinfda o'qiyman.

Kelajakda otam singari bog'bon bo'lish niyatim bor.

Ashirboy Qutlibekov 1999-yil, 20-yanvar.

2-topshiriq. Tarjimayi holda nimalar xususida yozilganligini soʻzlab bering.

85-mashq. Otangiz yoki onangiz bilan suhbatlashib, ularning tarjimayi hollarini yozishga harakat qiling.

Lugʻat

tarjimayi hol — oʻmirbayan

tuman — rayon (elot)

jamoa xoʻjaligi — birlesken xojalıq

qishloq — awıl

kelajak — keleshek

bogʻbon — bagʻman

FEʼLLARNING SHAXS-SON QOʻSHIMCHALARI BILAN OʻZGARISHI

86-mashq. 1-topshiriq. Berilgan feʼllarni oʻzak va qoʻshimchalarga ajrating.

Yozdim, oʻqidiq, ishladilar, chizding, terdi.

2-topshiriq. Ish-harakatning bir kishi yoki koʻp kishi tomonidan bajarilganligini qanday aniqladingiz?



Bilib qoʻying. Feʼllarga qoʻshiladigan **-dim, -ing (-ding, -di, -dik, -dingiz, -dilar)** qoʻshimchalari shaxs-son qoʻshimchalaridir.

87-mashq. 1-topshiriq. Gaplarni oʻqing. Harakatning qaysi shaxs tomonidan bajarilganligini aniqlang.

Men ertagacha shoir Erkin Vohidovning “Oʻzbekim” sheʼridan parcha yodlamoqchiman. Otni qamchilang, boʻlmasa kechga qolamiz. (*Odil Yoqubov*). Yosh rassom oʻzi chizgan rasmlarni koʻrsatdi. U oʻzi tikkan bejirim koʻylakni dugonalariga koʻrsatdi. (*Zafar Barnoyev*).

2-topshiriq. Feʼllardagi shaxs va son qoʻshimchasini aniqlang.

3-topshiriq. Kesimdan soʻroq berib, gapning egasini aniqlang va ularni daftaringizga koʻchiring.

88-mashq. «Men tugʻilib oʻsgan joy» mavzusida matn yarating.

Lug'at

shaxs-son qo'shimchalari — betlik jalg'awları
o'zak — tu'bir
ega — baslawish
kesim — bayanlawish

YANGI YIL BAYRAMI

89-mashq. Rasmni diqqat bilan kuzating va og'zaki hikoya qiling.



90-mashq. «Biz yangi yilga puxta tayyorgarlik ko'rdik» mavzusida og'zaki hikoya tuzing.

91-mashq. She'ni ifodali o'qing. Mazmunini o'z so'zlaringiz bilan so'zlab bering.

QISH BOBONING HAZILI

Bir kun tongda qarasam,
O'rik, olma va olcham,
Hatto jajji niholcham
Oppoq gulga kiribdi.
Chopib chiqdim bog'imga
Rang-barang gul teray deb,
Va tergan gullarimni
Do'stlaringa beray deb.
Gul deb o'ylaganlarim
Bilsam, oppoq qor ekan.
Qish boboning shunchalik,
Hazillari bor ekan.

(S. Jabbor.)

MA'NODOSH FE'LLAR

92-mashq. 1 -topshiriq. Berilgan fe'llarga yaqin ma'noli fe'llar topib, namunadagidek yozing.

Bajarmoq, maslahatlashmoq, ado etmoq, maslahat qilmoq, kengashmoq, bitirmoq.

N a m u n a : *bajarmoq — ijro etmoq, qondirmoq.*

2 -topshiriq. Bu so'zlarni qatnashtirib, gaplar tuzing.

93-mashq. Berilgan so'zlarga bittadan yaqin ma'noli so'z toping.

ishlamoq — ...

istamoq — ...

yengmoq — ...

eslamoq — ...

94-mashq. Berilgan gaplarda nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi mos so‘zlardan birini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Bu nuroniy otaxonning ... nur yog‘ilardi. 2. ... demang bizni, ko‘tarib uramiz sizni. (Maqol). 3. ... bulut qopladi. (*chehralaridan, kichkina, mitti, mayda, osmonni, samoni*).

95-mashq. 1-topshiriq. Berilgan hikoyani o‘qing. Mazmuni asosida savol-javob o‘tkazing.

DO‘STLIK — OLTINDAN QIMMAT

Oqil bobo hikoya qiladi. Bir qishloqda ikki oshna yashar ekan. Birining oti Husan, ikkinchisidiki Muhammad ekan. Ular juda inoq ekan. Husan kasal bo‘lib, o‘rnidan turolmay qolibdi. Yosh yigitning umri tugayotganiga O‘limning ichi achishib: “Sen yashashing kerak. Qani, men eng yaqin kishingdan — onangdan senga umr so‘rab ko‘ray-chi” — debdi.

Husan rozi bo‘libdi. Shundan so‘ng O‘lim yigitning onasiga murojaat qilib: “Ey ona, sevimli bolangni yaxshi ko‘rsang, umringdan ozginasini unga bergin”, — debdi. Lekin ona boshqa farzandlarini o‘ylab, bu taklifga rozi bo‘lmabdi. Shundan keyin O‘lim Husandan: “Eng yaqin kishilaringdan yana kim qoldi?” — deb so‘rabdi. “Muhammad degan bir do‘stim bor”, — deb javob beribdi Husan.

O‘lim Muhammadning oldiga borib, bor gapni aytibdi. Do‘stiga ichi achishgan Muhammad: “Umrimning ozginasini emas, do‘stim uchun yarmini olaqol!” — debdi. Bu gap O‘limning ham ko‘nglini yumshatibdi. Husanni saqlab qolishga ahd qilibdi.

O‘lim Hayotning oldiga boribdi. — Sen bilan biz ashaddiy yovmiz. Lekin bir yigitning umri tufayli sening oldingga keldim. O‘sha yigitga Muhammad degan do‘sti umrining yarmini berishga va‘da berdi. Marhamat qil, ularga ko‘proq umr bergin. Men ham shunga roziman, — debdi O‘lim.

Bu taklifga Hayot rozi bo‘libdi. Muhammadning umridan qarz olinmasdan, Husanga qo‘shimcha hayot beribdi.

Shunday qilib ikki do‘stning bir-biriga bo‘lgan sadoqati va inoqligi O‘limni ham chekintiribdi.

Darhaqiqat:

Oshnolar bo'lishsa chin qadrdon,
O'limni yengishga topilar imkon.

2-topshiriq. Hikoyadan chiqargan xulosangizni so'zlab bering.

3-topshiriq. Berilgan reja asosida bayon yozing.

REJA

1. Ikki do'st.
2. Husan kasal bo'lib qolibdi.
3. O'limning Husanga rahmi keldi.
4. Muhammadning do'stiga sadoqati.
5. O'lim chekindi.

4-topshiriq. Yuqoridagi matndan qaratqich va tushum kelishigida kelgan so'zlarni aniqlang.

Lug'at

ma'nodosh fe'llar — sinonim feyil

maslahat — ken'es

istamoq — qa'lew

nuqta — noqat

chehra — shiray


hikoya — gu'rriin'

oshna — ag'ayin

ko'ngil — kewil

umr — o'mir

96-mashq. Rasmni diqqat bilan kuzating, unga sarlavha toping va hikoya tuzing.



97-*masq.* II chorakda o'rganilganlar yuzasidan "Topqirlar bellashuvi" o'tkazing.

OTLARNING EGALIK QO'SHIMCHALARI BILAN O'ZGARISHI

98-*masq.* 1-topshiriq. Jadvalda berilgan **daftar, oila** so'zlariga qo'shilgan qo'shimchalarni aniqlang.

Shaxslar	Birlik	Ko'plik
I shaxs	<i>daftaram, oilam</i>	<i>daftaramiz, oilamiz</i>
II shaxs	<i>daftaring, oilang</i>	<i>daftaringiz, oilangiz</i>
III shaxs	<i>daftari, oilasi</i>	<i>daftarlari, oilalari</i>

2-topshiriq. **Kitob** va **o'g'il** so'zlarini jadvalda berilgan tartibda shaxs-son qo'shimchalari bilan o'zgartiring.



Bilib oling. Otlarga qo'shiladigan **-mi, -im, -ng, -ing, -si, -i, -miz, -imiz, -nggiz, -lari** qo'shimchalari egalik qo'shimchalaridir.

99-*masq.* She'riy parchalarni o'qing. Ajratilgan so'zlarning o'zak va qo'shimchasini aniqlang.

Suv **sepaman, supuraman,**
Uy, **hovlimiz** top-toza.
Barcha yaxshi **ishlarimdan,**
Ukam olar andoza.

(S. Jabbor.)

Xalqimiz ahil bo'lsa,
Mustahkamdir **yurtimiz.**
Bolalar ahil bo'lsa,
Shudir **bizning baxtimiz.**

(M. Hayitmatov.)

100-*masq.* Berilgan otlarga egalik qo'shimchasini qo'shib o'qing. Egalik qo'shimchasi bilan o'zgargan otning shaxs va sonini aniqlang.

Ko'ylak, televizor, darsxona, mashina.

101-mashq. 1-topshiriq. Berilgan matnda nuqtalar o'rniga zarur egalik qo'shimchasini qo'ying.

BAYROQ NIMA?

Bayroq davlatning ramziy belgi...dir. Millat uchun eng muhim... davlat bayrog'...dir. Davlat bayrog'... xalqning mustaqilligini va xalqaro hurmatga ega ekanligini bildiradi.

(Alibek Rustamiy.)

2-topshiriq. O'zbekistonning davlat bayrog'i haqida bilganlaringizni so'zlab bering.



102-mashq. Oxiri unli va undosh bilan tugagan ikkitadan so'z toping va ularga egalik qo'shimchasini qo'shib ko'ring.



Bilib oling. Unli bilan tugagan otlarga **-m, -ng, -si, -miz, -ngiz, -lari** qo'shimchalari, undosh bilan tugagan o'zaklarga esa **-im, -ing, -i, -imiz, -ingiz** qo'shimchalari qo'shiladi.

Lug'at

egalik qo'shimchalari — tartim qosimtalari

mustahkam — bekkem

unli — dawisli

hovli — ha'wli

undosh — dawissiz

103-mashq. Berilgan qoraqalpoqcha otlarni o'zbek tiliga o'giring. Ularning birlik son va ko'plik sonda ekanligini aniqlang.

U'kem, u'ken', u'kesi, u'ken'iz, u'keleri.

Watanim, watanin', watani, watanimiz, watanin'iz, watanlari.

104-mashq. "Oqiw kitabi" dan birorta qoraqalpoqcha matnini o'qing. Egalik qo'shimchasi ishtirok etgan otlarni o'zbek tiliga o'giring hamda qo'shimchani qaysi shaxs va sonda ekanligini aniqlang.

105-mashq. «O'zbekistonimiz» mavzusida matn yarating.

OTLARNING KELISHIK QO'SHIMCHALARI BILAN O'ZGARISHI

106-mashq. O'qing, ikkinchi so'zdan birinchi so'zga so'roq bering.

Kitobni o'qidim, kitobning muqovasi, kitobga yozmang, kitobda ko'rdim, kitobdan oldim.

N a m u n a : *nimani ko'rdim? — kitobni ko'rdim.*



Bilib oling. O'zbek tilida oltita kelishik bor: bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, jo'nalish kelishigi, o'rin-payt kelishigi, chiqish kelishigi.

107-mashq. Kelishiklarning nomlari, so'roqlari, qo'shimchalarini ko'rsatuvchi quyidagi jadvalni esda tuting.

1-jadval

Kelishiklar	So'roqlar	Qo'shimchalari
Bosh kelishik	kim? kimlar?, nima?, nimalar?, qayer?, qayerlar?	
Qaratqich kelishigi	kimning?, kimlarning?, nimaning?, nimalarning? qayerning?, qayerlarning?	-ning
Tushum kelishigi	kimni?, kimlarni?, nimani? nimalarni?, qayemi?, qayerlarni?	-ni
Jo'nalish kelishigi	kimga?, kimlarga?, nimaga? nimalarga?, qayerga?, qayerlarga?	-ga (-ka, -qa)
O'rin-payt kelishigi	kimda?, kimlarda?, nimada?, nimalarda? qayerlarda?	-da
Chiqish kelishigi	kimdan? kimlardan?, nimadan?, nimalardan?, qayerdan, qayerlardan?	-dan

108-mashq. So'roqlar o'rniga mos so'zni qo'yib ko'chiring.

(Kimning?) surati, (qayerga?) bor, (nimaga?) soldim, (kimdan?) so'radim, (kimni?) chaqirdim.

109-mashq. Berilgan jadvalga qarab **telefon, terek** so'zlarini qoraqalpoq tilida kelishiklar bo'yicha turlang.

2-jadval

Seplikler	Sorawları	So'zlerdin' sepleniwi
Ataw	Kim?, ne?, kimler?, neler?	Oqıwshı, kitap
İyelik	kimnin'?, nenin'?, kimlerdin'?, nelerdin'?	Oqıwshının', kitaptın'
Barıs	Kimge?, nege?, kimlerge?, nelerge?	Oqıwshıg'a, kitapqa
Tabıs	kimdi? neni?, kimlerdi?, nelerdi?	Oqıwshını, kitaptı
Shıg'ıs	Kimnen?, neden?, kimlerden? nelerden?	Oqıwshıdan, kitaptan
Orın	kimde?, nede?, qayda?	Oqıwshıda, kitapta,

110-mashq. Rasmni kuzating. "Qishki shudgor" mavzusida matn yarating. Matningizdagi so'zlarni kelishik qo'shimchalarida turlang.



111-mashq. 1-topshiriq. Berilgan soʻzlarni kelishiklar boʻyicha turlang.

Piyola, gilam, televizor.

2-topshiriq. Turlangan soʻzlaringizdan biri ishtirokida gap tuzing.

112-mashq. Nuqtalar oʻrniga zarur kelishik qoʻshimchasini qoʻying.

Choy... ichdim, choy... mazasi, choy... aralashtirma, choy... bor, choy... ich.

113-mashq. Rasmni kuzating va **“Bizning oila”** mavzusida matn tuzing. Qaysi kelishik qoʻshimchalaridan foydalanganingizni tushuntiring.



114-mashq. Oxiri **n** tovushi bilan tugagan otlarga qaratqich va tushum kelishigining qo‘shimchalarini qo‘shib ko‘ring. Ularning imlosini tushuntiring.

115-mashq. Oxiri **g** tovushi bilan tugagan otlarga jo‘nalish kelishigining qo‘shimchasini qo‘shib ko‘ring. Ularning imlosini tushuntiring.

116-mashq. Oxiri **d** tovushi bilan tugagan so‘zlarga o‘rin-payt va chiqish kelishigining qo‘shimchasini qo‘shib ko‘ring. Ularning imlosini tushuntiring.

SONLARNING KELISHIK QO‘SHIMCHALARI BILAN O‘ZGARISHI

117-mashq. 1-topshiriq. Berilgan raqamlarni so‘zlar bilan yozing.

2, 6, 7, 8, 9.

2-topshiriq. Bu sonlarni kelishik qo‘shimchalari bilan turlab ko‘ring.



Bilib oling. Sonlar ham otlar kabi kelishik qo‘shimchasini qabul qiladi.

118-mashq. O‘qing. Nuqtalar o‘miga zarur kelishik qo‘shimchasini qo‘ying.

1. O‘n... sakkiz... ko‘paytirsang sakson bo‘ladi. 2. Ikki yuz qirq besh... bir yuz besh... ayirsang bir yuz-u qirq bo‘ladi.

119-mashq. Soatda ko‘rsatilgan vaqtni ayting. Qaysi kelishik qo‘shimchasidan foydalanganingizni tushuntiring.

Soat 7¹⁵ daqiqa o‘tgan.

Soat 8³⁰ daqiqa o‘tgan.

Soat yigirmaga o‘n besh daqiqa yetmaydi.

120-mashq. “Oila budjeti” mavzusida kichik matn tuzing.

Lug‘at

raqam — son

daqiqa — minut

oila — shan‘araq

muqova — muqaba

a‘zolar — ag‘zalar

OLMOSHLARNING KELISHIK QO'SHIMCHALARI BILAN O'ZGARISHI

121-mashq. Men, sen, u, biz, siz, ular kishilik olmoshlarini kelishik bo'yicha o'zgartiring.



Bilib qo'ying. Men, sen olmoshlariga **-ni, -ning** qo'shimchalari qo'shilganda bir **n** tovushi tushib qoladi.

122-mashq. O'qing. Nuqtalar o'miga zarur kelishik qo'shimchasini qo'ying.

Men... daftarim, siz... chaqirdilar, u... ko'rdim, sen...
tanimadi, biz... diyor, u... kitoblari.

123-mashq. 1-topshiriq. Rasmni kuzating. "Mening darsxonam" mavzusida avval og'zaki suhbat o'tkazing. So'ngra yozma matn tuzing.



2-topshiriq. Matningizdan olmoshlarni toping. Ularning qaysi kelishik qo'shimchalarini qabul qilganligini izohlang.

124-mashq. She'riy parchani o'qing. Olmoshlarni toping va qaysi kelishik qo'shimchasini qabul qilganligini ayting.

SERQUYOSH O'LKA

Do'stlar, mening yurtimni,
O'zbekiston deydilar.
Dong'i tutgan dunyoni
Bog'-u bo'ston deydilar.

Osmoni keng, beg'ubor,
Shifobaxshdir havosi.
Dimog'larni chog' etar,
Uning shodon navosi.

(Zafar Diyor.)

Lug'at

olmosh — almasiq

shifobaxsh — shupabag'ish

beg'ubor — mo'ldir

chog' etar — shad eter

serquyosh — quyashli

dimog'larni — kewillerdi

shodon — shad

dong'i — dan'qi, dawng'i

GAP

IXCHAM GAP. SODDA YIG'IQ GAP

125-mashq. Namunaga qarab berilgan so'zlarni shaxs va sonda o'zgartiring.

Ishla, o'quvchi

N a m u n a :

Birlik sonda

I shaxs. o'qidim

II shaxs. o'qiding

III shaxs. o'qidi

Birlik sonda

I shaxs. muhandisman

II shaxs. muhandissan

III shaxs. muhandis

Ko'plik sonda

I. o'qidik

II. o'qidingiz

III. o'qidilar

Ko'plik sonda

I. yozuvchimiz

II. yozuvchingiz

III. yozuvchilari

126-mashq. 1-topshiriq. Shaxs va zamon ko'rsatkichlariga ega bo'lgan faqat kesimdan iborat gaplarni hosil qiling.

Namuna: Chizdim. Bajardilar. Yugurdik. O'qidi.

2-topshiriq. Berilgan gaplarning egasini topishga harakat qiling.

127-mashq. Ixcham gaplar tuzing.

128-mashq. O'qing. Ajratilgan so'zlarni kishilik o'lmashlari bilan birga ko'chiring. Qaysi shaxsga oidligini ayting.

1. Biz kitobni **o'qidik**. 2. U xatni **yozdi**. 3. Ular mashinada **keldilar**. 4. Biz sayohatga **chiqdik**.

129-mashq. Faqat ega va kesimdan iborat gaplarni hosil qiling.



Bilib oling. Ega va kesimdan iborat gaplar sodda yig'iq gaplardir.

SODDA YOYIQ GAP

130-mashq. Kesimdan so'roq berish orqali gaplarni kengaytiring.

Biz chiqdik. Ular ishladilar. Yomg'ir yog'di. Men keldim. Bolalar hayvonot bog'ida yirtqich hayvonlarni tomosha qildilar. Qafasdagi ikkita serjun qora ayiq tinmay yurar edi. Oq ayiqlar esa hovuzda cho'milishardi. Bolalar chiroyli tovusni ham ko'rdilar.



Bilib oling. Ega va kesimdan tashqari ikkinchi darajali bo'laklar ishtirok etgan gaplar sodda yoyiq gaplardir.

131-mashq. Sodda yoyiq gaplar tuzing.

132-mashq. O'qing. Sodda yig'iq gaplarni sodda yoyiq gaplarga aylantiring.

QISH

Havo sovudi. Yerlar muzladi. Qor yog'di. Bolalar o'ynadilar.

133-mashq. Hikoyani o'qing. Savollarga javob bering.

Hotami to'yidan: o'zingizdan ko'ra saxiyroq biror odamni ko'rgan yoki eshitganmisiz?—deb so'radilar. Hotami to'yi bunday odamni ko'rganligini so'zlab berdi.

“Bir kuni u arab amirlarini chaqirib ziyofat qilibdi. Ziyofat uchun qirq tuya so'yibdi. Bir zarurat bilan sahroga chiqishga to'g'ri kelibdi. U yerda cho'p-cho'mak terib dastalayotgan o'tinchini ko'ribdi. U o'tinchidan Hotamning uyiga nima sababdan bormaganligini so'rabdi. Va hozir bir talay odam uning ziyofat dasturxonini atrofida o'tirganini so'zlabdi. O'tinchi javob beribdi:

“O'z mehnatidan non yegan kishi
Hotam minnatidan ozod yoz-qishi”.

Hotam ana shu o'tinchini o'zidan ko'ra sahovatliroq deb bilibdi.

Savol va topshiriqlar:

1. Hotami to'yidan nimani so'radilar?
2. Matndan Hotami to'yining javobini topib oling.
3. “O'z mehnatidan non yegan kishi, Hotam minnatidan ozod yoz-qishi” misralarining mazmunini qanday tushundingiz?
4. “Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik” maqolining mazmunini qanday tushunasiz?

134-mashq. O'zingiz sodda yoyiq gaplar hosil qiling va kesimini aniqlang.

135-mashq. Maqollarni o'qing. Mazmunini tushuntiring.

- | | |
|---|--|
| 1. Birni birov beradi,
Ko'pni mehnat. | 2. Bir qo'llab eksang,
Ikki qo'llab yig'asan. |
| 3. Bemehnat hikmat yo'q. | 4. Gap bilguncha, ish bil. |
| 5. Gapni oz so'zla,
Ishni ko'p ko'zla. | 6. Mehnat qilib topganing,
Qand-u asal totganing. |
| 7. Ishlagan xor bo'lmas. | 8. Mehnat baxt keltirar. |

136-mashq. Mehnat va mehnatsevarlik xususida qoraqalpoq xalq maqollaridan qaysilarni bilasiz?

137-mashq. Yuqorida berilgan xalq maqollaridan birini sarlavha sifatida qo'llab, shu haqida matn yarating.

8-MART — XALQARO XOTIN-QIZLAR BAYRAMI

138-mashq. Rasmni kuzating, mazmunini so'zlab bering.



139-mashq. Savollarga og‘zaki javob bering.

1. Nega 8-Mart eng ulug‘ bayramlardan biri sanaladi?
2. Biz nega 8-Martni bahoriy bayram deymiz?
3. Xotin-qizlarning jamiyatda tutgan o‘rni haqida nimalar deya olasiz?
4. Nega biz onajonlarimiz oldida hamisha qarzdormiz?

140-mashq. 1-topshiriq. Matnni o‘qing, uning mazmunini so‘zlab bering.

ONANI ROZI QILISH HAQIDA

Bir kishi Rasulullohdan “Men yaxshiligimni kimga qilsam bo‘ladi?”— deb so‘rabdi. “Onangga”—debdilar, Rasululloh. U kishi savolini uch marotaba qaytaribdi. Rasululloh “Onangga”, deya beribdilar. To‘rtinchi marotaba yana so‘rabdi. Shunda “Otangga va yaqin qarindoshlaringga!”— debdilar.

(“*Hadis*”dan)

2-topshiriq. Bu “**Hadis**” dan qanday xulosa chiqardingiz?

141-mashq. Onalar haqida bilgan she‘rlaringiz, hikmatli so‘zlaringizni aytib bering.

142-mashq. 1-topshiriq. Matnni o‘qing.

OTA-ONANI HURMATLASH HAQIDA

Aql bilan ish tutgan farzand ota-onani izzat va hurmatlashi lozim. Chunki ular farzand uchun o‘limga ham tayyor turadilar. Ota-onaning ishi farzandni parvarish qilish va yaxshilikka o‘rgatishdir.

Farzand aqlli va dono bo‘lsa, ota-onaning mehr-muhabbatini ado etadi. Agar farzand ota-onaning ko‘nglini sal bo‘lsada ranjitsa, ularning qalbini azoblagan bo‘ladi.

Ko‘rdingki, ota-ona seni jon-dili bilan parvarishlab voyaga yetkazadi. Agar sen ularga nisbatan xato ish qilsang, sen hech yaxshilikka sazovor emassan. Chunki har kishi ota-onaning yaxshiligini bilmasa, bironing yaxshiligiga baho berolmaydi.

(“*Qobusnoma*”dan.)

2-topshiriq. Savol va topshiriqlar ustida ishlang.

1. Matndan ota-onaning farzandga mehri ifodalangan o'rinni toping va o'qing.

2. Farzandning ota-ona oldidagi vazifasi nimadan iborat?

3. Birovning yaxshiligiga baho berish uchun kishi nima qilishi kerak?

4. Siz ota-onani hurmatlash deganda nimani tushunasiz?

GAPDA SO'ZLARNING O'ZARO BOG'LANISHI

143-mashq. Berilgan so'zlardan gap tuzing va yozing. Gapning ega va kesimini aniqlang.

1. Terdik, paxtalarni mashinada, biz. 2. Bayramiga, onajonlar, tayyorgarlik, ko'rdik, puxta, biz. 3. Kutubxonasiga, maktab, biz, bo'lganmiz, a'zo. 4. O'quvchilari, sinfimizning, peshqadam, g'olibi, olimpiada, bo'ldilar.

N a m u n a: *Biz paxtalarni mashinada terdik.*

144-mashq. So'roqlar o'rniga tegishli so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Biz (nimalarni? nimada?) terdik. 2. Biz (nimaga? qanday?) tayyorgarlik ko'rdik. 3. O'quvchilar (kimlarga?) yordamlashdilar. 4. Televizorda (nimani? qanday?) tomosha qildim.



Bilib qo'ying. Shaxs-son va kelishik qo'shimchalari gapda so'zlarni o'zaro aloqaga kiritishga xizmat qiladi.

145-mashq. O'qing. Qoraqalpoqcha gaplarni o'zbek tiliga o'giring. So'zlarni o'zaro aloqaga kiritgan qo'shimchalarni aniqlang.

DA'RI

Qizdin' anasi awirip qaldi. Shipaker kelip qarasa, qizdin' anasi bir qoli menen basin uslap, ekinshi qoli menen jerdegi oyinshiqlardi jynastirip ju'rgen eken. Al, qiz bolsa, ku'side o'zi otirip, anasina is buyiradi eken.

— Su't ber!

Anasi zordan orninan turip, qizina su't quyip beredi eken.

— Quwirshag'imdi alip ber! Botinkamdi sheship jiber! — dep qiz baqiradi eken.

Shipaker buni ko'ripti de:

— Tap bul qiz awirw anasina jumis buyirwdi taslamag'ansha anasi awirwinan du'zelmeydi,— dedi.

(Sh. Sadulla.)

146-mashq. Televizorda ko'rgan multfilm yoki kinofilmlardan birining mazminini so'zlab bering.

GAPNING UYUSHIQ BO'LAKLARI

147-mashq. Gapda ajratilgan so'zlarga so'roq bering.

1. Qoraqalpog'iston Respublikasida **bug'doy, paxta, sholi** singari qishloq xo'jalik ekinlari ekiladi. 2. Sinfimizda **filmoskop, diaskop, kinoapparat** bor. 3. **Gulziyra, Gulparsha, Gulnora, Gulchehra** sinfimizning a'lochi, jamoatchi o'quvchilari sanaladi. 4. Qoraqalpog'iston Respublikasida **Nukus, Xo'jayli, Kegayli, Taxtako'pir, To'rtko'l, Beruniy** kabi tumanlar bor. 5. Opam **chiroyli, bejirim, nafis** ko'ylaklar tikadilar.

148-mashq. So'roq gaplarga javob yozing.

1. Siz darsda qanday o'quv qurollaridan foydalanasiz?
2. 4-sinfda qaysi o'quv fanlari o'rganiladi?
3. Qoraqalpoq xalqi qaysi musiqiy asboblardan foydalanadi?
4. O'zbekistonning qaysi shaharlari qadimiy shaharlar sanaladi?

149-mashq. 1-topshiriq. So'roqlarga uyushiq bo'laklar orqali javob berib, gaplarni kengaytiring.

1. Maktab gulzoriga qanday gul ko'chatlari o'tqazdingiz?
2. Bu gullarni sinfdoshlaringizdan kimlar parvarish qiladi?
3. Gullar ochilgach, qanday ranglarda tovlanadi?
4. Siz bu gullarni kimlarga hadya etasiz?

2-topshiriq. Matnga qanday sarlavha qo'yish mumkin?

150-mashq. Berilgan gaplarda uyushiq bo'laklar orasidagi vergul o'rniga **-u, -yu, va** bog'lovchilarini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Qurilishga beton, g'isht, yog'och keltirildi. 2. Uylarning eshik, deraza romlari o'rnatildi. 3. Qurilish inshootida qoraqalpoqlar, o'zbeklar, ruslar, turkmanlar mehnat qiladilar. 4. Xivada yog'och o'ymakorligi, ganchkorlik san'ati benihoya rivojlangan.



Bilib oling. Uyushiq bo'laklar **va, -u, -yu** bog'lovchilari bilan bog'langanda vergul qo'llanilmaydi.

151-mashq. "Beruniy vatani" mavzusida avval suhbat o'tkazing, so'ngra yozma matn hosil qiling.



Lug'at

gapning uyushiq bo'laklari — gaptin' birgelkili ag'zalan

vergul — u'tir

inshoot — qurilis

sanoat — sanoat

21-MART— NAVRO‘Z BAYRAMI

152-mashq. 1-topshiriq. Rivoyatni o‘qing. Mazmunini og‘zaki so‘zlab bering.

SUMALAK

(*Rivoyat*)

Bir dehqon bahor kelishi bilan urug‘likka olib qo‘ygan donini suvga ivitib qo‘yibdi. Lekin birdan havo aynib, yomg‘ir yog‘a boshlabdi. Ob-havo hadeganda ochilavermabdi.

Dehqonning bola-chaqasi och ekan. Nishlab ketgan bug‘doy uvol bo‘lmasin, biron narsa pishirib bera qolay, — deb o‘ylabdi dehqon. Bu orada bug‘doy ancha bo‘y cho‘zib qolibdi. Dehqon donni olib qiymalabdi-da, kampiriga:

— Bundan biron narsa pishir, baribir uvol bo‘lib ketadi, — debdi.

Kampir qiymani qozonga solib qaynataveribdi-qaynataveribdi. Oxiri qaynatishdan bezor bo‘lib, qozonning qopqog‘ini yopibdi-da, uxlagani yotibdi. Ertalab azonda uyqusini ochib, qozondan xabar olgani boribdi. Qopqoqni ochib ko‘rgan ekan, ajoyib hid dimog‘iga uribdi. Tatib ko‘rsa, qozondagi qiyom juda mazali, hidi esa juda yoqimli, o‘zi to‘yimli ekan.

Kelasi yili bahorda dehqon bolalarining yana o‘sha taomdan yegilari kelibdi. Shundan so‘ng bu taom xalq orasida keng tarqalib, bahorning lazzatli taomiga aylanibdi.

Keyinchalik dehqonlar donni faqat urug‘likka emas, balki sumalak pishirish uchun ham qo‘yishadigan bo‘lishibdi. Urug‘likka olib qo‘yilgan dondan mo‘l-ko‘l hosil ko‘tarilsa, sumalakka asrab qo‘yilgan bug‘doydan esa kishilar o‘zlarining sog‘ligini tiklash va bardam bo‘lish uchun hayotbaxsh taom tayyorlashar ekan.

2-topshiriq. Rivoyat bo‘yicha berilgan savollarga javob bering.

1. Dehqon nima uchun bug‘doyni eka olmabdi?
2. Kampir nima qilibdi?
3. Sumalak pishirish qanday qilib urf bo‘lgan ekan?

153-mashq. Rasmni kuzating. Mazmunini soʻzlab bering.



154-mashq. Savollarga javob toping.

1. Nega xalqimiz 21-martni yangi yilning boshlanishi kuni sifatida nishonlaydi?

2. Nega Navro'z bayrami yasharish, yangilanish bayrami sanaladi?

3. Siz sumalak tayyorlash jarayoni haqida nimalar bilasiz?

4. Navro'z dasturxoniga nimalar qo'yiladi?

5. Odamlar Navro'z bayrami kuni nima ish qilishadi?

6. Siz qoraqalpoq xalqining milliy taomi — Nawrız go'je haqida nimalar bilasiz?

155-mashq. O'qing. Bayram urf-odatları yuzasidan suhbat o'tkazing.

BAYRAM URF-ODATLARI

Navro'zda uy-joyni tozalaydilar;

— daraxtlar tanasini oqlaydilar;

— bug'doy undirib sumalak pishiradilar;

— yaxshi niyatlar qiladilar;

— yangi kiyim-bosh kiyadilar;

— ot chopishga hozirlik ko'radilar;

— Navro'z taomlari pishiradilar;

— araz-ginalarni unutadilar;

— qarindosh-urug'larnikiga boradilar;

— Navro'z kuni ota-ona qabrini ziyorat qiladilar;

— g'iybat qilmaydilar;

— qarindosh-urug', tanish-bilishlarga mehribonchilik qiladilar;

— otni, itni urmaydilar;

— Navro'z kuni barcha yalpiz teradilar;

— qizlar qizil kiyinishadi;

— Navro'z kuni uy sohibi uyda bo'ladi;

— bemorlarga bayram taomlari jo'natadi.

Lug'at

yasharish — jasariw

urf-odatlar — u'rp-a'detler

yangilanish — jan'alanıw

taom — tag'am, awqat

qiyma — maydalap shabilg'an qiyma
urug' — tuxim
yalpiz — nazbaygu'l

156-mashq. III chorakda o'rganilgan materiallar yuzasidan "Topqirlar bellashuvi" o'tkazing.

UNDALMA

157-mashq. O'qing. So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki narsa-buyumni aniqlang.

1. Qushlar, siz bizning do'stimizsiz. 2. Sen menga ona beshiksan, jon O'zbekiston! 3. Ey o'g'il, ota-ona xizmatidan bo'yin tovlama! (Kaykovus.) 4. Quyosh, nuring to'kaver mo'l-mo'l.(O.) 5. Sizni, dugonajon, juda hurmat qilaman.

158-mashq. Berilgan so'zlarni murojaat so'zlari sifatida qo'llab, gaplar tuzing.

O'quvchilar, vatandoshlarim, aziz o'qituvchi, odamlar, Shohidaxon.



Bilib oling. So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki narsa-buyumni ifodalovchi so'zlar undalmalardir.

159-mashq. "Oqirv kitabi" n'rizdan undalmali gaplar toping. Ularni o'zbek tiliga o'giring.

Lug'at

undalma — qaratpa so'z
dugona — dos
tovlama — burmalaw

TABRIKNOMA VA E'LON MATNI USTIDA ISHLASH

160-mashq. 1-topshiriq. Berilgan tabriknoma matnini o'qing va matnda nimalar haqida yozilganligini so'zlab bering.

TABRIKNOMA

Aziz oyijon, Sizni tug'ilgan kuningiz bilan chin yurakdan samimiy qutlayman. Baxtimizga hamisha omon bo'ling! Oilamizning baxti, ravnaqi yo'lida hormay-tolmay mehnat

qilishingizga kuch-quvvat tilayman. Biz, farzandlaringiz, Sizga o'xshab dono, kamtarin, oqila bo'lishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yamiz.

Hurmat va ehtirom bilan farzandlaringiz Shuhratjon va Oqila.

2-topshiriq. Yuqorida berilgan namunadan foydalanib sinfdoshingiz yaqin do'stingiz, (dugonangiz), qarindosh-urug'ingizga tabriknoma matni tayyorlang.

161-mashq. Berilgan e'lon matnini o'qing. Nima haqida xabar berilganligini so'zlang.

E'LON

Hurmatli sinfdoshlar! Maktabimizda shaxmat va shashka to'garagi faoliyat ko'rsatmoqda. Unga a'zo bo'lishni istaydiganlar payshanba kuni soat 3.00 dan 5.00 gacha to'garak rahbari Rahmonqul Karimovich Allaberganovga murojaat qilishlari mumkin.

To'garak maktabning 17-sinf xonasida faoliyat ko'rsatadi.

Maktabning shaxmat, shashka to'garagi rahbari.

162-mashq. Tabriknoma va e'lon matnida nimalar xususida yozish lozimligi haqida so'zlab bering.

Lug'at

tabriknoma — qutliqlaw

rahbar — basshi

ehtirom — hu'rmet

e'lon — dag'aza

kamtarin — kishiheyil

faoliyat — is ju'ritiw

QO'SHMA GAP

163-mashq. Berilgan sodda gap juftlarini **va, ham, hamda, shuning uchun, chunki, ammo, biroq** singari bog'lovchilar hamda **-u, -yu, -da** yuklama-qo'shimchalaridan mosi bilan birlashtiring.

1. Havo ochildi. Quyosh chiqdi. 2. Havo bulut bo'ldi. Yomg'ir yog'madi. 3. O'zbekiston mustaqillikka erishdi. Xalqimiz baxtli hayot kechira boshladi. 4. Maktabimizga shoirlar kelishdi. Ular bilan uchrashuv o'tkazildi.

Namuna: *Suv keldi. Cho'llar gulistonga aylandi. Suv keldi-yu, cho'llar gulistonga aylandi. Suv keldi-da, cho'llar gulistonga aylandi.*



Bilib oling. Ikki va undan ortiq sodda gapning birikuvidan hosil bo'lgan gap qo'shma gapdir.

164-mashq. Berilgan qo'shma gaplarni ikkita sodda gapga ajrating.

1. Sinfdozlarimizning turnir g'olibi bo'lishi hammamizni quvontirdi. 2. Eshik ochilib, uyga Ali qushchi kirib keldi. (O. Yoqubov.) 3. Biroz momaqaldiroq bo'lgach, osmonda kamalak paydo bo'ldi. (S.Ravshan.) 4. Men bugun maktabdan qaytib, uy ishlariga qarashdim.

Namuna: *Chiroq yoqilib, uy yorug' bo'ldi. — Chiroq yoqildi. Uy yorug' bo'ldi.*

165-mashq. Berilgan gaplarni mazmuniga qarab davom ettiring.

1. Bu yil suv ko'paydi, shuning uchun ...
2. Bahorda tez-tez yomg'ir yog'adi va ...
3. Bahor barvaqt keldi, natijada ...
4. Oy yoritadi, ammo
5. "O'zbek tili" faniga qiziqaman va ...

Namuna: *Berdaqning "Bolam" she'rini yoddan ifodali aytib berdim, shuning uchun o'qituvchimiz meni maqtadi.*

166-mashq. Berilgan qoraqalpoqcha gaplarni o'zbek tiliga o'giring. Har ikki tilda sodda gaplarning o'zaro bog'lanish vositasiga e'tibor bering.

1. Jerler ko'kledi ha'm ag'ashlar bu'rtikley basladi. 2. Dawil tindi, biraq qar jawip tur. 3. Men Altingu'ldi alistan tanidim, al ol meni tanimadi. 4. Olar keldi de, jynalis baslandi. 5. Bultlar tarqadi ha'm jawin tindi.

167-mashq. 1-topshiriq. Berilgan matnni o'qing hamda savol va topshiriqlar ustida ishleng.

YAXSHI FAZILAT

Yakshanba kuni edi. Zarifjon onasi Nazokat opa bilan bozorga kelayotgan edilar. Ularning yonidan o'rta yoshlardagi bir ayol o'tib ketdi. U cho'ntagidan ro'molchasini olgan edi, yuz so'm puli yerga tushdi. Ayol sezmedi. Nazokat opa darhol yerdan pulni oldi:

— Hoy opa,— deb ayolni chaqirdi, pulingiz tushib qolibdi,— deb pulni egasiga berdi.

Xotin pulni olib, minnatdorlik bildira-bildira yo'lida davom etdi.

— Oyi, anovi xotin puli tushib qolganini ko'rmagan ediku! Nega berdingiz? — dedi hayron bo'lib Zarifjon.

Shunda onasi quyidagi voqeani so'zlab berdi.

Bir kuni uyimizga to'satdan mehmon kelib qoldi. Maydachuyda olib kelgani do'konga bordim. Qarasam, yonimda pulim yo'q. Uydan pul olib chiqqan edim. Uni yo'lda tushirib qo'yibman. Kayfim uchib, yugurib ko'chaga chiqdim, hayriyat, bir keksaroq ayol topib olgan ekan.

— Hoy chirog'im, pulingiz tushib qolibdi,— deb pulimni berdi. Kampirga halolligi uchun ming-ming rahmat aytdim. Shunda qanchalik xursand bo'lganimni bilsang edi! Bordi-yu, pulimni topib olgan odam qaytarib bermaganda nima bo'lar edi?

— Yomon bo'lar edi,— dedi Zarifjon o'ylanib turib.

— Ha, haligi ayolga pulni qaytarib bermaganimizda, u ham mening ahvolimga tushar edi. Halollik — kishining eng yaxshi fazilati, bolam.

(N. Maqsudiy.)

2-topshiriq. Matndan ikkita sodda gapni birlashtirib, bitta qo'shma gapga aylantiring. Berilgan savol va topshiriqlar ustida ishleng.

1. Yakshanba kuni qanday voqea yuz berdi?
2. Nima uchun Nazokat opa uyiga mehmon kelganini eslab qoldi?
3. Yozuvchi shu hikoyasi bilan nima demoqchi? — Buni Nazokat opaning qaysi gapidan bildingiz?
4. Siz hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?

Lug'at

minnatdor — minnetdar
voqea — voqıya
chirog'im — shırag'im
halol — hadal

hayron — hayran
mehmon — miyman
ro'molcha — oramal
kayfim uchdi — qapa boldım

9-MAY — XOTIRA VA QADRLASH KUNI



168-mashq. Rasmni kuzating. Mazmuni asosida qoraqalpoqcha hikoya tuzing.

169-mashq. Xotira va qadrlash kuni haqida nimalar deya olasiz.

170-mashq. Savollarga javob bering.

1. Nega 9-mayni xotira va qadrlash kuni deb ataymiz?
2. Siz urushga qatnashganlardan kimlarning nomlarini bilasiz?
3. Urush xalqimiz boshiga qanday musibatlar keltirdi?
4. Bobolarimiz jasorati haqida nimalar bilasiz?

171-mashq. “Vatan himoyachilari” mavzusida matn yarating.

172-mashq. “Urush” mavzusida koʻrgan kinofilmingiz yoki oʻqigan hikoyangizdan olgan taassurotlaringizni soʻzlab bering.

KOʻCHIRMA VA OʻZLASHTIRMA GAP

173-mashq. Gaplarni oʻqing. Soʻzlovchining fikri va boshqalarning aynan olingan fikrini aniqlang.

1. “Bugun maktabimizda shoirlar bilan uchrashuv oʻtkaziladi”, — dedi oʻqituvchimiz. 2. Xaridor sotuvchidan soʻradi: “Bu matoning eni necha santimetr?”. 3. “Bir kunlik adolat — yuz kunlik toat-ibodatdan afzal”, — deb aytganlar bobomiz Amir Temur. 4. Az-Zamaxshariy yozadilar: “Harakatsiz bilim — ipsiz kamon oʻqidir”. 5. “Maʼrifatga intilish, — deb qayd qiladilar prezidentimiz I. Karimov—xalqimizning azaliy fazilatlaridan biridir.”



Bilib oling. Oʻzgalarning aynan oʻzgarishsiz olingan gapi koʻchirma gapdir.

174-mashq. Berilgan gap juftlarini qiyoslang. Ularning farqini aniqlashga harakat qiling.

1. “Bu yil paxtadan moʻl hosil olamiz”, — dedi xoʻjalik raisi. Xoʻjalik raisi bu yil paxtadan moʻl hosil olishini aytdi. 2. Uzoq yoʻl bosib keldim, — dedi yigit. Yigit uzoq yoʻl bosib kelganligini aytdi. 3. Bulbul Alisherga: “Qoʻngʻiroqday ovozing bor ekan”, debdi. Bulbul Alisherga qoʻngʻiroqday ovozi borligini aytibdi.



Esda tuting. Muallif gapi ko'chirma gapdan oldin kelsa, u ikki nuqta bilan ajratiladi va ko'chirma gap qo'shtirnoq ichiga olinadi.

175-mashq. Berilgan qoliplar asosida gaplar tuzing.

1. Muallif gapi: "Ko'chirma gap". 2. Muallif gapi: "Ko'chirma gap?" 3. "Ko'chirma gap?"— muallif gapi. 4. "Ko'chirma gap,—muallif gapi, — ko'chirma gap".

176-mashq. Ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gapga va o'zlashtirma gaplarni ko'chirma gapga aylantirish yuzasidan guruhlararo musobaqa o'tkazing.

177-mashq. Badiiy asarlardan ko'chirma gaplarga misollar toping.

178-mashq. 1-topshiriq. O'qing. Ko'chirma gaplarni aniqlang. Ularni o'zlashtirma gapga aylantiring.

KITOB

O'tgan zamonda bir podsho vazir-u ulamolarini yoniga chaqiribdi. Podsho ularga: "Dunyoda eng zo'r, kerakli va hamma narsadan xabardor qiluvchi nima?" deb savol beribdi. Kishilar u deyishibdi, bu deyishibdi. Birovi dunyoda eng zo'r — qilich desa, ikkinchisi — eng keraklisi—non, debdi. Uchinchisi esa hamma narsadan xabar beruvchi narsa — sehrlil oynayi jahon, — debdi.

— Uch kun muhlat beraman, — debdi podsho hech kimning javobi yoqmaganligidan darg'azab bo'lib.

Qo'shni podsholikda tarifi yetti iqlimga ketgan donishmand yashar ekan. Undan vazirning xabari bor ekan. Vazir podshoning savollariga shu donishmand javob bera olishiga aqli yetibdi va uni izlab topibdi. Unga podshoning savollarini aytibdi.

Donishmand hech ikkilanmay: — Kitob. Chunki kitob bilim beradi. Dunyodagi eng qudratli narsa esa bilimdir — debdi. Donishmandning javobi podshoga ham ma'qul tushibdi.

2-topshiriq. Savollarga javob bering va topshiriqlarni bajaring.

1. Podshoning istagi nima edi?
2. Podshoning istagi qanday amalga oshdi?
3. Matndan donishmandning javobini toping va o'qing.
4. Donishmandning javobidan siz qanday xulosa chiqardingiz?

179-mashq. 1-topshiriq. Prezidentimiz I. A. Karimovning fikrlarini o'qing. Ularni qatnashtirib ko'chirma gaplarni hosil qiling.

1. Yurtimizning xavfsizligi — siyosatimizning bosh maqsadi.
 2. Eng oliy maqsadim — xalqimning omonligi. 3. O'zlikni anglash — tarixni bilishdan boshlanadi. 4. Biz Beruniylarga, Buxoriylarga, Temur, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Boburlarga vorismiz. 5. Savob — ulug' insoniy fazilatdir.

2-topshiriq. Ko'chirma gaplarni hosil qilishda qanday tinish belgilaridan foydalandingiz? Shu xususida so'zlab bering.

Lug'at

ko'chirma gap — tuwra ga'p

xaridor — qariydar

muallif gapi — avtor ga'pi

o'zlashtirma gap — o'zlestirilgen ga'p

qo'ng'iroq — qon'iraw

oynayi jahon — televizor

MATN

MONOLOGIK MATN

180-mashq. 1-topshiriq. She'mi o'qing. Fikr kim tomonidan bayon qilinayotganligini ayting.

KITOB, MENING DO'STIMSAN

Varaqlasam bir boshdan
 Quvnab bag'rim ochilur,
 Oltin harf - so'zlardan
 Totli ma'no sochilur.
 Shuning uchun deymanki:
 Kitob, mening do'stimsan!

Har sahifang men uchun
 Bir hikoyat so'zlaydi.

O'qib olim bo'lgin, deb
Yaxshi niyat ko'zlaydi.
Shuning uchun deymanki:
Kitob, mening do'stimsan!

Oq betingga elimning
Baxtnomasi bitilgan.
Barcha ko'zlar ilmning
Gul naqshiga tikilgan.
Shuning uchun deymanki:
Kitob, mening do'stimsan!

Seni jondan sevaman
Meni tilga o'rgatding,
Hadya qilib ilm-fan,
Yorug' yo'llar ko'rsatding.
Shuning uchun deymanki:
Kitob, mening do'stimsan!

181-mashq. Rasmni kuzating. Tabiat manzarasini tasvirlab matn yarating.



182-mashq. 1-topshiriq. Matnni o'qing. Yozning qanday fasl ekanligini so'zlab bering.

YOZDA

Issiq yoz boshlandi. Tabiat yanada go'zallashdi. Dala va bog'larda ish qizib ketdi. Gilos, olcha, o'riklar pishdi. Bug'doy o'rimi boshlandi. Qushlar bola ochdi.

Yozda bolalar ta'tilga chiqadilar. Ular dam olgani orom-gohlarga, dala, bog'larga ketadilar.

Quvnoq yoz eng sevimli fasldir.

2-topshiriq. Matn mazmunini qoraqalpoq tilida so'zlab bering.



Bilib qo'ying. Shaxsning o'ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi monologik nutqdir.

183-mashq. Sinf xonasi yoki darsxonangizni tasvirlab matn yarating.

SHE'RIY MATN

184-mashq. 1-topshiriq. She'rni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

AZIZ USTOZ BOBOM

Bir aziz bobo dunyoda tanho,
Xushtabiat, xushqomat, muloyim, dono.
Ko'ngillarini kengligi yer, kurra-osmon.
Ko'zlari nuroniy, oynayi jahon.
Shoir, bog'bon, olim, alloma sarvar,
Umrini xalqiga bergan xalqsevar.
O'ylari hamisha otalik mehri,
Olamga ma'rifat, odamlik mehri.
Xalqlarning g'amini yegan otaxon.
Haqiqat borini degan otaxon.
Asrlar taqdirini oldindan ko'rgan,
Adolat uyiga poydevor qurgan.
Ellarga quyoshdek maqbul kitobi,

Jahonda nur sochar “Hamsa” — oftobi.
So‘z bilan jahonni lol-hayron etgan.
Odamzod qalbini mudom yoritgan.
Zulmatni qalagan gulxanga, o‘tga,
Erkin hayot, tenglik istagan yurtga.

(Q. Muhammadiy.)

2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. She‘riy matn nasriy matndan nima bilan farq qiladi?
2. She‘riy matnda gap qurilishi nasriy matndagi gap qurilishidan farq qiladimi?
3. She‘rda qofiya deganda nimani tushunasiz?

3-topshiriq. Alisher Navoiy haqida nimalar bilasiz?



Bilib qo‘ying. She‘riy matnda so‘zlarning odatdagi tartibi o‘zgargan bo‘ladi. Bu fikrning ta‘sirchanligi, ohangdorligini oshirishga xizmat qiladi.

185-mashq. O‘zingiz yoddan bilgan she‘rlardan birini ifodali ayting. Mazmunini so‘zlab bering.

Lug‘at

xotira — eske aliw

gapning markazi — ga‘ptin‘ oray

xushtabiat — kewil xoshli adam

jasorat — erlik

bog‘bon — bag‘man

qadrlash — qa‘dirlew

tanho — jalg‘iz

poydevor — irge (fundament)

alloma — ilimpaz

shoir — shayir



Bilib qo‘ying. Nasriy matnda kesim ko‘pincha gap oxirida keladi.

DIALOGIK MATN

186-mashq. 1-topshiriq. Suhbatda necha kishi ishtirok etayotganligini ayting.

- Salimoxon, kecha hayvonot bog‘iga bordingizmi?
- Ha, bordim. Siz-chi?

- Men bugun borgan edim juda qiziqarli ekan.
- Qaysi hayvon sizni ko'proq hayratga soldi?
- Ikki boshli ilonlar. Qiziq ilonning tanasi bitta-yu, boshi ikkita. Har og'zidan ham tilini chiqarib turadi. Men oldin bunday ilonlar xususida sira o'qimagan ekanman.
- Bunday ilonlar haqida "Tong yulduzi" gazetasi oldin bir maqola ham e'lon qilgan edi. O'qimagan ekansiz-da!
- Sizga ko'proq qaysi hayvon yoqdi?
- Jirafalar.
- Bo'yni uzun, juda chiroyli jirafalarni ko'rgandirsiz?
- Ha, ko'rdim. Darhaqiqat, juda chiroyli ekan.

2-topshiriq. Matnda har bir so'zlovchining fikri qanday berilayotganligiga e'tibor bering.



Bilib oling. Ikki kishining o'zaro suhbatini dialog deyiladi. Dialogda har bir so'zlovchining fikri xat boshidan tire (—) qo'yib yoziladi.

187-mashq. Qatorlararo muayyan bir mavzuda savol-javob tashkil qiling. Berilgan ko'chirma gapli matnni dialogga aylantiring.

SINFDOHLAR SUHBATI

“Men bugun darsdan keyin maktab kutubxonasiga kirmoqchiman”, — dedi Nargiza. “Men ham kutubxonaga kirishim kerak”, — dedi Fotima. “Kutubxonadan qanday kitobni olmoqchisan?” —so'radi Nargiza. G'afur G'ulomning “Mening o'g'rigina bolam” hikoyasi juda qiziqarli ekan. Shu hikoyani o'qimoqchiman” —javob berdi u.

188-mashq. Mashqdagi matnga qarab “Salim bobo va uning nevarasi orasidagi suhbat” mavzusida dialogik matn tuzing.

Lug'at

matn — tekst

ilon — jılan

qator — qatar

suhbat — sa'wbet

qiziqarli — qiziqli, qizig'arli

chiroyli — shirayli

189-mashq. 1-topshiriq. Sulton Jo'raning "Kimning xati chiroyli" she'rini rollarga bo'linib o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

KIMNING XATI CHIROYLI

Solishtirib ko'raylik,	Tep-tekis yurar perom
Kimning xati chiroyli?	Va bo'yab hamma yoqni
Qani oching daftarni,	Tomizmayman siyohni.
Menikiday xat bormi?	O'tirishim to'g'ri, soz.
Ko'ring hamma harfimni,	Qoidaga juda mos.
Qiziqtirar har kimni.	Ko'kragimni men sira
Harfim aniq, go'zal-xush	O'tirganim yo'q tirab.
Qiynalmay mumkin o'qish.	Chiroyli yoz, yozsang xat!
Daftardagi chiziq sim,	Chunki bu ham zo'r san'at...
Va undagi har so'zim	Biz ham bo'laylik hatto
Qaldirg'ochdek tizilgan	Alisher kabi hattot.
U yozilgan tez-ildam.	Shuning uchun lozim shart.
Doim menga bo'ysinar.	Qiyshaymang har tomonga!"
Deb beraman komanda.	Husnixatga muhabbat...
Soat o'qiday biram	

2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Shoir she'rda daftar chiziqларini nimaga o'xshatadi? Harflarni-chi?

2. Yozayotganda partada qanday o'tirish kerak? Partada to'g'ri o'tirishning qanday foydali tomonlari bor?

190-mashq. Siz boshlang'ich sinfda juda ko'p matnlarga duch keldingiz, o'rganganlaringiz va bilganlaringiz asosida quyidagi savollarga javob toping.

1. Matn nima?

2. Matnning qanday turlari bor.

3. Siz o'qigan ertak va hikoya matnlari she'riy matndan nima bilan farq qiladi.

191-mashq. Boshlanish qismi berilgan matnni mazmunan davom ettiring.

Rahimjon shamollab, uzoq vaqt kasalxonada davolanishiga to'g'ri keldi. Sinfdoshlar o'rtoqlarini yakkalab qo'ymadilar...

192-mashq. “Oqiw kitabi” dan birorta ertak matnini o‘qing. Uni o‘zbek tiliga o‘giring.

193-mashq. Berilgan qoraqalpoqcha maqollardan qanday xulosa chiqarganingizni o‘zbek tilida bayon qiling.

O‘nerli kisi qor bolmaydi.

Oqiw — bilim bulag‘i,
Bilim — o‘ner shirag‘i.

Ko‘z qorqaq, qol batir.

Az so‘yle — saz so‘yle.

Bu‘gingi isti erten‘ge qoyma.

Kitap bilim bulag‘i.
Aqil jasta emes, basta.

194-mashq. “O‘zbek tili darslaridan olgan taassurotlarim” mavzusida matn yarating.

TAKRORLASH

195-mashq. Yil davomida o‘rganilgan materiallar yuzasidan “**Topqirlar bellashuvi**” o‘tkazing.

196-mashq. O‘qituvchingiz tomonidan tayyorlangan 30 ta test topshiriqlarini yeching.

MUNDARIJA

1-Sentabr — O‘zbekiston mustaqilligi kuni	3
Takrorlash	5
So‘z, gap va matn	5
Olmosh	7
Yordamchi so‘zlar	11
Bog‘lovchilar	11
1-Oktabr — Muallimjonlar bayrami	12
So‘z tarkibi	16
Qo‘shma so‘zlar	19
21-Oktabr — Til bayrami	22
Juft so‘zlar	24
So‘z ma‘nosi	26
Ma‘nodosh so‘zlar	28
Uyadosh so‘zlar	30
Zid ma‘noli so‘zlar	31
8-Dekabr — O‘zbekiston Konstitutsiyasi kuni	33
Tarjimaiy hol yozish	34
Fe‘llarning shaxs-son qo‘shimchalari bilan o‘zgarishi	35
Yangi yil bayrami	36
Ma‘nodosh fe‘llar	37
Otlarning egalik qo‘shimchalari bilan o‘zgarishi	40
Otlarning kelishik qo‘shimchalari bilan o‘zgarishi	42
Sonlarning kelishik qo‘shimchalari bilan o‘zgarishi	45
Olmoshlarning kelishik qo‘shimchalari bilan o‘zgarishi	46
Gap. Ixcham gap. Sodda yig‘iq gap	47
Sodda yoyiq gap	48
8-mart — xalqaro xotin-qizlar bayrami	50
Gapda so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi	52
Gapning uyushiq bo‘laklari	53
21-mart— Navro‘z bayrami	55
Undalma	58
Tabriknoma va e‘lon matni ustida ishlash	58
Qo‘shma gap	59
9-May — Xotira va qadrlash kuni	62
Ko‘chirma va o‘zlashtirma gap	63
Matn	65
Monologik matn	65
She‘riy matn	67
Dialogik matn	68
Takrorlash	71